



QO'G'IRCHOQ BO'SHQARTSH



ASOSLARI



O'quv-uslubiy qo'llanma

MARIONETKA TEATRI


486.53
83
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

IRODA TURDIYEVA

QO'G'IRCHOQ BOSHQARISH ASOSLARI

(MARIONETKA TEATRI)

O'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent
"LESSON PRESS"
2015

UDK: 372.8+39(575.1)

KBKK: 74.26.7

T35

Turdiyeva Iroda Toirovna.

Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (Marionetka teatri).

O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: «Lesson Press» nashriyot,
2015. – 56 b.

Tarjimon:

Kozimxon SAGDULLAYEV

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining
Mustaqil izlanuvchi

Muharrir:

Ma'mur UMAROV

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Fatxulla XO'JAYEV

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist,
Respublika qo'g'irchoq teatri aktyori

Tatyana SMOLYAKOVA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti

Qo'llanma O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy
kengashining (2013 yil 29 maydagi 10 sonli bayonnoma) majlisida ma'qullandi va
nashrga tavsiya etildi.

ISBN:978-9943-381-14-8

©Turdiyeva Iroda
© «Lesson Press» nashriyoti 2015

KIRISH

Insonning fantaziyaga moyilligi azaldan kuzatilgan. Unga jonsiz qo'g'irchoqning ko'z oldida harakatga kelishi nihoyatda hayratga solar darajadagi mo'jizaday tuyulgan. Aynan shuning uchun bo'lsa kerakki, xudolarni harakatsiz tasviriga ham inson alohida e'tibor qaratgan. Harakatsiz haykallarning jonlanishi qo'g'irchoq teatri boshlanishiga turtki berdi. Shu sababdan qo'g'irchoqlar bilan bog'liq tomoshalar teatr san'atining juda qadimgi turlaridan biri hisoblanadi.

Qo'g'irchoqlar dunyoning ko'pgina xalqlariga ma'lum edi. Qo'g'irchoqbozlar tomoshasi o'tmishdagi arxaik jamiyat hayotida muhim vazifani bajargan. Hamma joyda teatrning kelib chiqishi bir: u diniy marosimlar va bayram tantanalaridagi tomoshalaridan yuzaga kelgan. Ular orasida qo'g'irchoq teatri xalqning sevimli ko'ngilxushiga, bayramona o'yin-kulgisiga, oilaviy tantananing bir qismiga aylangan. Shuningdek, omma ko'nglidagi norozilikning deyarli yagona ifodachisi ham qo'g'irchoqbozlar tomoshasi bo'lgan.

Qo'g'irchoqbozlar sodda sahna ko'rinishlarida jonli, haqqoniy, o'tkir hajviy obrazlar yaratishib, dolzarb masalalarga tegishar va aksar hollarda quvg'inga ham duchor bo'lishardi.

Sharq xalqlarining qo'g'irchoq teatri repertuari nihoyatda rang-barang bo'lgan. Ular, komediya va fantastik mavzudagi voqealarni o'z ichiga olgan tomoshalar edi. Bu tomoshalarda xudolar, jinlar, ajdaholar, xalq qahramonlari haqidagi asotir va afsonalar o'ynalardi. Shuningdek, qo'g'irchoqlar yordamida xalq ertaklari, hajviy sahnalar o'ynalib, inson illatlari, jumladan, ziqnalik, qo'rqqoqlik va ahmoqlik mazax qilingan.

Hozirda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida qo'g'irchoq teatrlari bor. Bu qo'g'irchoq teatrlari faqat bolalar uchun emas, balki kattalar uchun ham xizmat qilishi jihatidan ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etmoqda. To'g'ri, ko'proq qo'g'irchoq teatrining bosh maqsadi ulg'ayotgan avlod vakillarini sahna mo'jizasiga oshno qilish bo'lib qolmoqda. Zero, ular qo'g'irchoqlarni o'ynash, qo'g'irchoq teatri tomoshalarini ko'rish orqali kelajakda ma'naviy boy va har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib tarbiyalansinlar. Niyat – maqsad amalga oshirilishi nasihatimiz tarzda emas, balki harakatda: rassomlar, qo'g'irchoq ustalari, rejissyorlar, aktyorlar yaratadigan obrazlar, qo'g'irchoqlarni jonlanishi orqali amalga oshishi kerak.

Qo'g'irchoqlarni jonlantirishning bir necha yo'nalishi va ularning o'z tizimi bor. Ulardan nisbatan murakkabi va o'z navbatida kam

qo'llaniladigani – “marionetka teatri” qo'g'irchoqlarini jonlantirish sistemasidir.

Marionetka teatri qo'g'irchoqlari planshetli qo'g'irchoqlaridek harakatchan va universaldir. Asosiysi, aktyorlar umuman tomoshabinlarga ko'rinmaydi. Lekin bu yo'nalishni o'zlashtirgan aktyorlar o'z rovida yashay olishadi. Ming yillardan beri dunyoning ko'plab mamlakatlarida yassi soya qo'g'irchoqlar va barmoqlardagi qo'g'irchoqlar rampa (sahna oldiga o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga tushadigan chiroqlar) yorug'ida jonlanadi. Simda boshqariladigan qo'g'irchoqlar esa XX asr boshiga qadar faqat Sharqda bo'lib, ko'proq Xitoy va Indoneziyaga xos edi.

O'zbekistonda 1939 yili Respublika qo'g'irchoq teatri ish boshladi va shu paytdan boshlab simda boshqariladigan qo'g'irchoqlar tizimi uzluksiz qo'llanib kelinmoqda.

Bugungi kunda marionetka teatri tizimi uslubini yoritish va targ'ib qilish ayniqsa, teatr san'ati ta'limi talabalari uchun nihoyatda dolzarb masala. Ular sahnalashtirgan spektakllar qo'g'irchoq boshqarishning turli tizimlarida amalga oshirilsa, tomoshalar ham rang-barang bo'ladi, bolalarga sehrli qo'g'irchoqlar mo'jizasi qiziqarli va ta'sirli ko'rinadi.

Taniqli olim Muhsin Qodirov ta'kidicha, o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri XX asrning 30 yillariga qadar “qo'g'irchoq o'yin”, deb yuritilgan. Ijrochi – qo'g'irchoq boshqaruvchi Alisher Navoiy davridan boshlab “qovurchoqchi” (qo'g'irchoqchi) deyilgan, keyinchalik esa, “qo'g'irchoqboz” deb atalgan. Alisher Navoiy o'z zamondoshi, “Futuvvatnomayi sultoni” risolasining muallifi Husayn Voiz Koshifiyga tayanib yuqoridagi fikrga havola keltiradi. Zero, uning mazkur asarini ikkinchi qismi, oltinchi fasli to'liq qo'g'irchoq o'yinlariga bag'ishlangan edi. Bu esa, XV-XVI asrlarda qo'g'irchoq teatrining asosiy turlari rivojlanganidan darak beradi.

Shoirning:

“Mixu sutunsiz tikibon chodarin,

Davra etib chodarining poykarin” degan so'zlarini yodga olishning o'zi kifoya. Bu teatrdagi qo'g'irchoqchi parda - chodirni o'zi kiyib, sahnani mixsiz, bir qancha cho'plar yordamida quradi, o'zi ustunga aylanadi, uning boshi va beliga cho'plar tayanadi, pardaning pastki qismini yig'ib beliga bog'laydi va u qo'lida qo'g'irchoqlarni o'ynatadi (qo'l qo'g'irchoq teatri).

Har safar sahnada ikki qo'g'irchoqqina ko'rinishi mumkin. Shoir ta'rificha, sumanbar jonon va zulfidan mushku anbar bo'ylari taraluvchi qo'g'irchoqlar tomoshabinlarni o'ziga mahliyo qilgan.

Olim ta'kidicha, Alisher Navoiy davrida "chodir xayol" deb yuritilgan marionetka teatrigina ko'plab qo'g'irchoqlarning ishtirokini ko'rsata olgan. Aynan shunday teatr kechqurunlari o'z tomoshalarini ko'rsatgan va aktyorlar o'z qo'g'irchoqlaridan balandlikda turib, ularni ip yordamida yuqoridan boshqarishgan.

Zamonaviy qo'g'irchoq teatrining muhim vazifalaridan biri – bolalar uchun to'g'ri repertuar tanlash, uning yuksak ijrosi, milliy an'analarni ko'rsata bilish, qotib qolgan qoliplardan voz kechib, yangi badiiy shakllarda ishlash, qo'g'irchoq teatrining repertuarini yangi g'oyalar bilan boyitish va davr talabiga javob berishdir. Buning uchun jahon qo'g'irchoq teatrlarida sodir bo'layotgan jarayonlaridan ta'sirlanib yangilanish yo'llarini izlashga intilish zaruratga aylandi.

Demak, qo'llanmaning maqsadi qo'g'irchoq teatri san'atida "marionetka teatri"ning o'rni va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, badiiy evolyusiyasidagi asosiy tendensiyalarni tahlil qilishdir. Ishning asosini milliy qo'g'irchoq teatri san'atidagi novatorlik an'analar va izlanishlarning o'zaro ta'sirini aniqlash tashkil qiladi. Bunday yondashuvni davr talabi va marionetkalar turlarini o'rganish hamda amaliyotga tadbqiq qilish zarurati taqozo qilmoqda. Ishning tamoyili xronologik bayon qilishda emas, balki, "marionetka teatri" bo'yicha hozirgacha to'plangan tajribalarning real qadrini aniqlashdir.

O'zbek teatrshunosligida marionetka teatri haqida, uning tuzilishi va boshqarilishiga oid adabiyotlar mavjud emas. Bugungi kunda o'zbek yosh tomoshabinlari uchun marionetka teatri kam murojaat qilingan va u ayni vaqtda qo'g'irchoq teatrining juda qiziq, murakkab turi hisoblanadi. Qo'llanmaning birinchi qismi olimlarning an'anaviy qo'g'irchoq teatriga bag'ishlangan tadqiqotlariga hamda amaliyotchilar bilan suhbatlarda olingan materiallarga asoslangan va ikkinchi qismi esa Piter Frayzerning qo'g'irchoq teatrining turlariga bag'ishlangan tadqiqoti asosida yozilgan. Marionetka teatriga bag'ishlangan mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmadan qo'g'irchoq aktyorlarini o'qitishda, shuningdek, soha mutaxassislari va havaskorlar esa o'z amaliyotida foydalanishi mumkin.

“CHODIR XAYOL” VA “CHODIR JAMOL” TEATRI

O‘zbekistonda an’anaviy marionetka teatri “Chodir xayol” deb yuritiladi. “Chodir Xayol”ning mavzusi tarjimada – “Xayol teatri”, “Ruhlar chodiri”, “Fantaziyalar chodiri” ma’nolarini beradi. Bu yerda “chodir” so‘zining tor ma’nosi bilan cheklanib bo‘lmaydi. Chunki, u qo‘g‘irchoq teatrida yangi mazmun kasb etib, “sahna”, “teatr” ma’nosini ham anglatadi. “Xayol” so‘zi esa ko‘p ma’nodir: faraz, tasavvur, o‘y-fikrlar; orzu, shirin xayollar; to‘qima, uydirma, xom xayollar; lahza, on, xotira. “Xayol” so‘zi “orzu” yoki “fantaziya” tarzida qo‘g‘irchoq teatrining mohiyatiga to‘g‘ri keladi. Qisqa qilib aytganda, “chodir xayol”ni “orzular va fantaziyalar teatri” deyish mumkin. Mohiyatan o‘zbek marionetka teatri o‘z sahnasida afsona va xalq qahramonlik eposlaridagi syujetlarni noodatiy badiiy shakllarda ifodalay oladigan teatrdir.

An’anaviy qo‘g‘irchoq teatrida “Chodir jamol” degan yo‘nalish ham bor. Lekin, “Chodir xayol” “Chodir jamol”ga nisbatan ancha murakkab va mukammaldir. Bu uning barcha komponentlarida namoyon bo‘ladi: sahna qurilmasida; qo‘g‘irchoqlar yasashida; ijro texnikasida; mavzu masalasida.

Ikkala teatrning qo‘g‘irchoqlaridagi farq shundaki, “Ruhlar chodiri” uchun ular insonning bo‘yi baravar, ya’ni boshdan oyoq qilib tayyorlangan, “qo‘l” qo‘g‘irchoqlarida esa faqat bosh qismi yasaladi. Unga matodan tikilgan qo‘g‘irchoq kiyimi birlashtiriladi. Muhsin Qodirov ta’kidlashicha, Shomuhiddin qo‘g‘irchoqboz davridayoq lattadan qo‘g‘irchoqlar tayyorlangan. Qo‘g‘irchoqlar ko‘pincha qovoqdan ham yasilib, unga burun, lattadan qo‘llar va oyoqlar yopishtirilgan. Keyinchalik, Tursunboy qo‘g‘irchoqboz Toshkentda nam terining qirindisidan qo‘g‘irchoqlar yasagan. U paytlarda qirindidan hunarmandlar yog‘ saqlaydigan idishlar qilishgan. Qirindilar taxminan ikki kun davomida suvda ivitilgandan keyin qo‘g‘irchoq gavdasining o‘ziga xos shakli - “qolip”ga quyilgan. Quyilgan qatlam yetarlicha qurib bo‘lgach, shakl qolipdan ko‘chirib olinadi va qo‘g‘irchoq bo‘yoq yoki lok surtilgach, tayyor bo‘lgan.

Qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari ko‘pincha yopiq binolarda, kamdan kam hollarda ochiq maydonda namoyish qilingan. Ochiq maydonda shunday joy tanlanardiki, yon-atrofida ijrochini tomoshabinlardan yashirinishi uchun imkon beradigan devor bo‘lardi. Tomoshalar uchun bog‘ yoki ochiq maydon, tepaliklarning old qismi tanlangan. Tanlangan

joyga supa o'rnatilib, ikki parda tortilgan. Old parda uzunligi 5-6 metr va balandligi esa 2,5 metr bo'lib, chipor chit yoki yo'l-yo'l beqasamdan tayyorlangan. Ort parda esa, qalin qora matodan bo'lib, old pardadan ikki baravar kalta qilib tikilgan. Pardalar oralig'i taxminan yarim metr ochiq qoldirilgan. Old pardaning etak o'rtasida balandligi 70-77 sm, uzunligi 180 sm to'rtburchak shakli qirqilgan. Shu tarzda sahna yuzaga kelgan. Ikkala parda bo'yiga va eniga tik qo'yilgan ustunlarga o'rnatilgan. Old pardada arqon bo'lgan. Ba'zan pardalarni oq yoki kul rangli matodan tikishib, unga o'ynalayotgan tomoshaga taalluqli shakl va belgilarni chizishgan.

"O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri" kitobi muallifi M.F.Gavrilov ilk bor bu teatr tarixi haqidagi materiallarni, kuzatishlarini, qo'g'irchoq ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqarish usulini, aktyorlar hayoti va turmushini, an'anaviy repertuarini umumlashtira oldi. U o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatrlarining ikki asosiy pyesalari – "Sarkardalar" va "Kachal Polvon" matnini chop qildi. Unda "Chodir xayol" teatridagi tomosha texnikasi quyidagicha bayon etiladi: "Sahnada qo'g'irchoqlar iplar yordamida harakatlanadi. Iplar "ichki parda" – chodir chetlarida dekorativ fon vazifasini o'tagani uchun qora bo'ladi. Iplar bilan odatda qo'g'irchoqning gavda, bosh, qo'l va oyoqlari bog'langan, ularni yakunlovchi uchlari esa mohirona yig'ilgan hamda "dastcho'p" deb nomlanadigan 20 sm atrofidagi yog'och cho'pga bog'langan. Chodir ichida, "ichki parda" ortida qo'g'irchoqboz qo'llarida "dastcho'p"ni ushlab turib qo'g'irchoqni sahnaga olib chiqadi, o'zi tomoshabinlarga ko'rinmay sahnada yashirin qoladi".

Bu masalani o'rgangan P.A.Komarov va M.Martinovichlarning yozishicha, sahnada ipli qo'g'irchoqlar faqatgina yuqoridan emas, pastdan, sahna tagidan ham cho'plar, ba'zan simlar bilan boshqarilgan. Shu nuqtayi nazardan qaranganda "Chodir xayol" teatri tomoshasi oqshomda ham, unchalik murakkab bo'lmagan nur va shovqinlar vositasida ko'rsatilgan. Natijada iplar va cho'plar ko'rinmay, xuddi qo'g'irchoqlarning o'zi harakat qilayotganday jozibali manzara yuzaga kelgan.

P.A.Komarov yozishicha, "«Chodir xayol» tomoshasida oltmishdan yuzga yaqin turli shaxslar chiqqan". Aftidan u bu turdagi qo'g'irchoqlarning sahnada ko'ringanlarning barchasini nazarda tutgan bo'lsa kerak.

Spektakl uch yo to'rt soat davom etishi uchun ko'p sonli qo'g'irchoqlar zarur bo'lgan. Epizodlar va personajlar ko'pligidan murakkab spektaklga ko'pincha atigi uch aktyor – korfarmon,

qo'g'irchoqboz va o'quvchi-shogird qatnashgan. Bir vaqtni o'zida sahnada 5-10 ta qo'g'irchoq bo'lib, ulardan 2-3 tasi bevosita xatti-harakatda bo'lgan. Bular marionetka teatri san'atiga ixtisoslashgan xalq qo'g'irchoqbozlarining yuksak texnikasini tasavvur qilish imkonini beradi.

"Chodir xayol" qo'g'irchoqlari "Chodir jamol" qo'g'irchoqlariga qaraganda ancha yirikroq, murakkabroq va rang-barang bo'lgan. Ularda qo'l-oyoq bor bo'lib, qo'g'irchoqlar mukammal ishlangan.

"Chodir xayol"ning yana bir xususiyatini qayd etish mumkin: qo'g'irchoqlari turli o'lchamlarda bo'lgan. Bu borada ham an'analar shakllangan. Jumladan, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik qo'g'irchoq teatriga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, farrosh qo'g'irchoq'i xonga nisbatan uch marotaba kichikroq bo'lishi kerak edi.

P.A.Komarovning marionetka qo'g'irchoqlari kolleksiyasi 47 taga yetgan, N.A.Baskakov qo'g'irchoqlari bu teatr turi bo'yicha 9 ta edi. Asosiysi, ular – "Chodir xayol"ning qo'g'irchoqlari "Chodir jamol"dagidek to'rt guruhdan iboratligi haqida darak beradi. Shuningdek, bu teatrdan nafaqat ramziy yo to'qima qahramonlar, balki ma'lum tarixiy shaxslarni ifodalovchi personajlar ham uchardi.

Hajviy personajlar guruhidagi ma'lum tarixiy shaxslarning qo'g'irchoq portretlari – Xudoyorxon, Puchuq oftobachi, Abdug'afforbek, Sa'dulla yuzboshi, Iso avliyo, Hamid qiyshiq-o'g'ri, Said Bobur Qalandar, ko'mir sotuvchi Qo'ng'irboy, eroniy savdogar, xitoyli shifokor va boshqalar edi.

P.A.Komarov va Sankt-Peterburg etnografiya muzeyi xodimlarining xizmatlari tufayli "Chodir xayol" qo'g'irchoqlari bizga qadar yetib kelganligini o'rgangan M.Qodirov shu fikrga keladiki, ba'zi bir qo'g'irchoqlar O'rta Osiyo chor Rossiyasi tarkibiga kirgandan keyin yuzaga kelgan.

"Chodir xayol" teatri qo'g'irchoqlari odatda yog'ochdan, mehr va mahorat bilan yasalgan. Har bir qo'g'irchoqda u yoki bu ijtimoiy guruhning tipik jihatlari realistik, hajviy umumlashma ko'rinishda o'z aksini topgan. Usta qo'g'irchoqbozlar ma'lum shaxslarni tasvirlashda, ulardan nusxa ko'chirmay, bu qo'g'irchoqlarga o'z munosabatlarini ifodalashga, xarakterli xususiyatlarini umumlashtirishga va hajviy o'tkirlashtirishga intilishgan. Qo'g'irchoqboz san'ati bilan jonlangan qo'g'irchoqlar yanada ifodaviyroq, obrazliroq bo'lgan.

Jozibador, quvnoq va ibratli tomosha yaratish uchun uning badiiy-g'oyaviy asosini ta'minlovchi dramaturgiya qo'g'irchoqlar kabi muhimdir.

Hozirga qadar “Chodir xayol”ning bir pyesasi yetib kelgan. U 1927 yili M.F.Gavrilov tomonidan qo‘g‘irchoqboz Yo‘ldosh Tursunboyevdan yozib olgan “Sarkardalar” komediyasidir. Aytish kerakki, matn mukammal emas. Manba bo‘lib xizmat qilgan qo‘g‘irchoqboz ko‘p dialoglarni, replikalar va qator qiziq sahnalarni unutgan. Shunga qaramay “Sarkardalar” o‘zbek xalqining an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri obidasi sifatida fan, madaniyat tarixi uchun qadrlı. Unga qarab, “Chodir xayol” teatri dramaturgiyasining tuzilishi, mavzusi, badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari haqida fikr yuritish mumkin va o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri boy yozma repertuariga egaligi jihatidan Xitoy soya teatri, turk “Qorako‘z” teatridan farqlanishini belgilashga imkon beradi.

M.F.Gavrilov “Sarkardalar” asarini epizodlarga bo‘lmagan, uni qay holda yozib olgan bo‘lsa, o‘sha holda chop qilgan. Bu esa epizodlarning ayqash-uyqash bo‘lishiga, mantiq buzilishiga olib kelgan. Tabiiyki, asarning bu ko‘rinishi “Chodir xayol” dramaturgiyasi haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi.

Mutaxassislar buni bartaraf qilishga intilib, pyesani mantiqan o‘n voqeali ko‘rinishga, o‘yimboshi – prolog va o‘yin so‘nggi – epilogga bo‘lib o‘rganishgan. Natijada asar syujetining rivojlanishi, kompozitsion qurilishi dastlabkisidan farq qila boshlagan. Ayni shu holda pyesa 1972 yili “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” kitobiga ilova tarzida nashr qilingan.

Bu XIX asr oxiri – XX asr boshida ko‘rsatilgan an‘anaviy xalq komediyasining bir varianti edi. Qo‘qon xonligi ag‘darilgandan keyin ham boshqa variantlari bo‘lgan. Masalan, tomoshalarning birida Xudoyorxon o‘zining a‘yonlari bilan qatnashganligi haqida xabar bor. Unda xon hukmdorligining so‘nggi kunlaridagi ayrim voqealar hajv ostiga olingan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida xalq an‘anaviy og‘zaki komediyasining turli variantlari bo‘lgan. Nima bo‘lganda ham “Sarkardalar” asarining oxirgi varianti yozib olindi, unda o‘tkir hajv zailashganiga qaramay “Chodir xayol” teatri dramaturgiyasi tizimi va namunaviy kompozitsiyasi saqlanib qolingan edi.

Komediya korfarmonning to‘rtligidan boshlanadi. Boshlanish qismi “Rivoyat” deb nomlanib, u tomoshaning mohiyatini so‘zlovchi o‘ziga xos kirish bo‘lib, o‘zbek an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatriga xarakterlidir. Ruhoniylarning ta‘siri bilan “rivoyat” qismi diniy-mistik mazmun kasb etgan. Uning mavzu va masalalari ba‘zan oshkor, ba‘zan yashirin tarzda ochib berilgan.

M.F.Gavrilov yozib olgan “Kachal polvon” rivoyat komediyasida esa mavzu va maqsad aniq belgilanadi.

Ne qilay, anduhimni tarqatadiganim yo'q erur menda, –

Yuragimning tashnaligiga do'st yo'q erur menda.

Mening yuragim istayotgan do'st bo'lganida

Yaratganim oldida boshqa istak yo'q erur menda

Bu rivoyat muhabbatsiz turmush qurgan kishilarning qayg'usi va ularning qalb do'sti orzusi aks etgan. Rivoyat tomoshaga aylanganda haqiqatdan ham ana shunday odamlardan biri bo'lmish Kachal polvon yurak do'stini axtarish mobaynida – qo'pol, urishqoq, befarosat xotin Bichaxonni uchratadi.

“Sarkardalar” komediyasi ham o'ziga xos rivoyat bilan boshlanadi.

Yaldo¹ kechani sham'i shabiston etgay,

Bir lahzada olamni guliston etgay,

Bir mushkul ishim tushibdi, e bor xudoyo,

Sen barcha mushkulim oson etgay.

Bu rivoyatda komediyaning mavzu va muammosi bir qadar yashirin shaklda berilgan. Tagma'no shunday: xon va uning a'yonlarining shafqatsizligidan xalq jabrlanmoqda. Qo'g'irchoqboz bu vaziyatdan chiqish yo'lini ko'rmasdan, Yaratganga yordam so'rab murojaat qilmoqda...

Tomoshada asarning kompozitsion qurilishi doim saqlab qolingan. Agarda ijro jarayonida sharoit taqozosi bilan yangi epizod yuzaga kelsa, u asosiy voqea bilan bog'langan. Masalan, XIX asr oxirida yuzaga kelgan va komediyaga kiritilgan “Do'xtir Botirshinning davosi” sahnasidir. Buni o'z vaqtida Muhsin Qodirov Doniyor Shohsuvorov, Quli bobo Navvotov va boshqa kekxa avlod qo'g'irchoqbozlar bilan qilgan suhbatida tasdiqlab olgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda “Sarkardalar” pyesasidagi – ovchi, bosh murosachi ishtirok etadigan va “eshak savdosi” ko'rinishlari asosiy mavzuga mantiqan daxldor bo'lmagan, tasodifiy qo'shilgan epizodlarday ko'rinadi. Bunda yozib olganni, yo' ko'rsatganni, yoki bayon qilganni ayblash qiyin. Aftidan bu davrda Toshkentlik qo'g'irchoqbozlar tomosha mantig'iga kam e'tibor qaratishgan yoki xalq komediyasi mavzulariga qiziqish so'nib borgan.

M.Qodirov bu sohada tadqiqotlar olib borib, bugungacha yetib kelmagan “Chodir xayol” teatri komediyalarining an'anaviy variantlari va shakllarida asar qurilishi mantiqan to'g'ri, yaxlit va tugal bo'lgan, unda tasodifiy, alohida ko'rinishlar va epizodlar bo'lmagan, degan xulosaga keladi. Qo'g'irchoq teatrlari asosan yirik yer egalari, shoh saroyi

¹ Yaldo kechasi – qishning eng qorong'u va uzun kechasidir.

a'yonlarini hajv qilgan. Xonlar, beklar, amaldorlar o'zgarishi bilan qo'g'irchoq teatri personajlarining tashqi ko'rinishi va ismi ham o'zgarib borgan. Misol sifatida P.A.Komarov jamlagan kolleksiyasida Xudoyorxon va uning amaldorlarining qo'g'irchoq portretlarini ko'rish mumkin. O'z vaqtida bu qo'g'irchoqlar Qo'qonda, Xudoyorxon saroyida bo'ladigan komediyalarda ishtirok etgan. M.F.Gavrilov yozuvlarida keltirilgan voqealar va personajlar esa Toshkent bekligi saroyida ko'rsatilgan.

Xalq qo'g'irchoqbozlari qo'g'irchoq personajlarini va tomoshalarini yaratishda, o'z davrining hayotiy voqealaridan kelib chiqqan. Bu tomoshalarining ijtimoiy hayot bilan aloqasi qo'g'irchoqlarda yaqqol ko'rinadi. Lekin, bu ijodkorlik uni ma'lum tarixiy yondashuv tamoyili bilan cheklanishi degani emas. Qo'g'irchoqbozlar an'anaviy syujet mag'zini, tipik umumlashgan yangi qo'g'irchoqlar bilan boyitib borgan. Zaruratga ko'ra an'anaviy qo'g'irchoq personajlarini dolzarblikka moslashgan tarzda, boshqa aniq tarixiy personajlarga o'zgartirilgan. Ma'lum shaxslar va ularni kulgi ostiga olishga intilish XIX asr oxiri va XX asr boshlari uchun xarakterli edi.

Yasovul – "Sarkardalar" tomoshasi bosh qahramoni. U ma'lum darajada Kachal polvonga o'xshash. Yasovul sahnaviy xatti-harakatlarning markazida turib rang-barang voqea va hodisalarni birlashtiradi. Lekin, xarakteri va ijtimoiy qiyofasiga ko'ra Yasovul Kachal polvondan farq qiladi. "Sarkardalar" komediyasida u o'ziga xos vazifani bajaradi. Uning zimmasiga yuqori mavqedagi mehmonlarni qabul qilish va shu munosabat bilan o'tkaziladigan tantanaga saroyini tayyorlash yuklatiladi. Yasovul munosib ravishda bu vazifani bajaradi. U dev va farroshni ishlatishga majbur qiladi, mehmonlarni kutib olib, martabasiga ko'ra joylashtiradi, konsert tashkillashtiradi, tartibbuzarlarni jazolaydi. Shu bilan birga qo'g'irchoqbozlarga, o'z navbatida xalqqa munosabatini ifodalagan holda, yuqori mavqedagi mehmonlarga hajviy tavsif berib, har bir voqeani kulgili tus olishini ta'minlaydi. Aks holda u xalq orasida bu qadar mashhur bo'lmas va uning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolmas edi. Afsuski, yozib olingan "Sarkardalar" komediyasi matnida Yasovulning mazkur jozibador qirrasini o'z aksini topmagan. Ammo, M.F.Gavrilov yozib olgan "Kachal polvon" pyesasida faqatgina "Chodir jamol"ga emas, balki "Chodir xayol"ga ham tegishli ko'rinish bo'lib, u Yasovul obrazi xalqchilligini namoyon etadi.

Tergovchi paydo bo'lib, atrofini ko'zdan kechirib: "Agar o'ynamoqchi bo'lsang jarima. Quyoshda o'tirma, soyada turma, yotma, ichma, yema, bo'lmasa – jarima!" Korfarmon Yasovuldan tergovchini

tartibga chaqirishni so'raydi. Yasovul paydo bo'lishi bilan tergovchi o'zini kasalga soladi. Yasovul go'yoki bekinadi va tergovchi jarima bilan po'pisa qilishni boshlagan paytda paydo bo'ladi. U yugurib borib tergovchining bo'g'zidan oladi. Mushtlashuv sodir bo'ladi. Yasovul g'olib bo'lgach, tergovchini qo'ltiq'lab olib ketadi.

Shunday qilib, Yasovul – quyi tabaqadan bo'lib, ma'lum xizmatlari uchun ko'tarilib, hukmdor saroyida amalga ega bo'lgan. Ammo, u xalq bilan aloqasini yo'qotmagan, uning nomidan gapiradi, o'z munosabatini ochiq ifodalaydi, quyi tabaqa manfaatlarini himoya qiladi.

Uning tashqi ko'rinishi: yog'och yoki lattadan qilingan qo'g'irchoq bo'lib, katta boshi va popukli qalpoqchasi bor, rus yasovullari namunasidagi libosga ega. Yuzining ko'rinishi – uzun qayrilgan mo'ylov, soqolsiz bashara, katta burgut burun, yelkasiga tayoqcha miltiq tarzida bog'langan.

Keyingisi shayton Kavsar – lattadan yasalgan dev-qo'g'irchoq. Burni va ko'zlari g'oyat katta, chaqchaygan, boshida juft shox, qo'llari uzun va palaxsa, oyoqlari bukchaygan.

Farrosh, qiziqarli qo'g'irchoqlardan biri bo'lib, dangasalik va bekorchilikni o'zida mujassamlashtirgan personajdir. Qo'g'irchoqning boshi yog'ochdan, tanasi lattadan ishlangan. Ajoyib burni, soqol va mo'ylovi bor. Libosi – belbog'li chapon, boshida mo'ynali telpak.

Undan keyin janglyorlar, raqqosalar, maymun o'ynatar, askarlar, mehmonlar-boshliqlar va nihoyat, toshkentlik podshoh kiradi. Afsuski, "Chodir xayol" teatrining zamonaviy qo'g'irchoqlarida deyarli barcha liboslar qo'g'irchoqboz fantaziyasi mahsuli va turmush an'analari bilan bog'lanmagan holda ko'rinadi.

Toshkentda o'ynalgan pyesalar mazmunidagi detallarga to'xtalish orqali "Sarkardalar" tomoshasida zamon nafasi sezilib turganligini anglash mumkin. Bu davr "Chodir xayol" tomoshalarida odatiy vakillar bo'lgan: harbiy formadagi shifokor – "Do'xtir Botirshin", shahar, uezd boshlig'i. Ular o'rniga boshqa tipajlar ham kiritilgan. Masalan, farg'onalik qo'rboshilar. Afsuski ular hali o'zlarini xatti-harakat, so'z bilan ko'rsatishmaydi, qo'rboshilar tomoshaning indamas qatnashchilariga aylantirilgan.

Mashhur kishilarni ifodalovchi qo'g'irchoqlardan tashqari tomoshada hayvonlar ham qatnashadi. Masalan fil, eshak, maymunlar, ilon-ajdar va laylak shular jumlasidan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida "Chodir xayol" dramaturgiyasida xalq qo'g'irchoqbozlari

badihaviy topilmalar, an'anaviy obrazlar va voqealarni yangicha talqin qilish bilan cheklanmasdan, o'zgarayotgan tarixiy-ijtimoiy sharoit ta'sirida davr talabiga mos sahna ko'rinishlarini faol ijod qilib, ularni qo'g'irchoq teatri tomoshalariga, an'anaviy komediyaga singdirib yuborishgan.

"Chodir jamol" teatri odatga ko'ra farzand tug'ilishi, uylanish kabi oilaviy va taqvim bayramlarda, "Chodir xayol" teatri esa faqatgina umumxalq sayillari va davlat bayramlarida tomoshalar ko'rsatgan.

YEVROPA MARIONETKASI

"Marionetka" – frantsuzcha "Marion", "Marionette" so'zlaridan olingan bo'lib, o'rta asrlarda qo'g'irchoq misteriyalaridagi (diniy mavzudagi drama) Bibi Maryamni tasvirlovchi kichkina qo'g'irchoqlarni anglatgan. Marionetka tomoshabinlardan parda ortiga yashiringan aktyor, qo'g'irchoq yurituvchi ya'ni, nevrospast tomonidan ip yoki simda yuqoridan boshqarilgan.

Qadim zamonlardan boshlab jahonning ko'plab xalqlarida inson hayoti yuqoridan ip bilan boshqarilib turilishi jihatidan marionetkaga qiyoslash bor edi. Qolaversa, azaldan teatr qo'g'irchoqlari jonli mavjudotlarga taajjubli o'xshashligi bilan kishilarni hayajonlantirar, ularning falsafiy o'ylariga turtki berardi. Ular uchun o'ta yorqin misol – boshqaruvchi va boshqariluvchi.

Marionetka, uni harakatga keltiruvchi iplar va nihoyat, bu harakatni boshqarayotgan inson irodasi – qo'g'irchoq teatrlining azaliy falsafasi, doimiy mavzuidir. Odam bilan bir qatorda doim uning alohida e'tiborini tortgan narsa – bu Yaratganning ramziy qudrati, tabiatning sirlari yoki inson taqdirining tasvirlaganligi edi.

Qo'g'irchoq san'ati tarixiy manbalarda Misr bayramlari bilan bog'liq tarzda birinchi bor qayd qilingan. Unda ayollar bo'yi 30-40 santimetrli, unchalik katta bo'lmagan qo'g'irchoq haykalchalarni qo'llariga olib, fleytachi bilan birga qishloq kezishgani va ularni maxsus arqonchalar yordamida harakatga keltirishgani tasvirlangan. Shunga o'xshash qo'g'irchoqlar Suriya, Lotin Amerikasi davlatlari hududidan ham topilgan.

Misrda xudolar hayotiga bag'ishlangan qo'g'irchoq teatri spektakllari harakatlanayotgan ikki g'ildirakli aravalar ustida o'ynalganligi tasvirlangan. Tomoshabinlar yo'lning ikki tomoniga joylashishgan va qo'g'irchoq teatri spektakldagi har bir sahnani yurib ketayotgan ikki g'ildirakli arava ustida ko'rsatishgan. Bu tamoyil

keyinchalik o'rta asrlar ingliz teatrida saqlanib qolindi va "Pedjent" nomini olgan edi. Bu tomoshalarda xudolarning roli faqat qo'g'irchoqlar yordamida ijro qilingan. Ular xudolarning haykallarini qo'llarida ko'tarib yurishgan va qo'llar bilan ularni harakatga keltirishgan. Chunki, xudo rolini inson o'z zimmasiga ololmasdi.

Qadimgi Yunonistonda qimmatbaho metallar va turli daraxtlardan avtomat deb nomlanadigan katta figurali qo'g'irchoqlar yasashgan. Ular faqat diniy bayramlarning tantanavor paytlaridagina harakatga keltirilgan. Bu aniq shaxsga o'xshatib yasalgan avtomatlarni to'la ma'noda qo'g'irchoq teatri, deb atash qiyin. Ammo, bu tomoshalarda teatrlashtirilishgan unsurlar bor edi. Yunon qo'g'irchoq teatri an'analari qadimgi Rimda mustahkamlandi va kengayib bordi. Bu yerda katta qo'g'irchoqlar bilan tomoshalar o'tkazilgan. Karikatura shaklidagi mexanik qo'g'irchoqlar bilan tanish chehralarni tasvirlanishi olomonni kuldirar yoki uning diliga qo'rqinch solardi.

Bundan tashqari Qadimgi Yunoniston va Rimning har bir uyida Bibi Mariyamning marionetka shaklidagi qo'g'irchoqlari, ba'zan kolleksiyasi bo'lishi shart edi. Ular zodagonlarning xona jihozi yoki stol bezagining bir bo'lagini tashkil etardi.

Qadimgi Yunoniston hududida "Vifleym qutisi" deb nomlangan qo'g'irchoqlar san'ati yuzaga keldi. Ular birinchi marta qadimda olam qanday tasavvur qilingan bo'lsa, qo'g'irchoqlar orqali uni o'shanday ifodalashga intilishi bilan juda o'ziga xos edi. Old devori yo'q, ikki qavatli qutining pastki qismiga qo'g'irchoq-odamlar, yuqorisiga esa tasavvur qilingan xudolarni ifodalovchi qo'g'irchoqlar joylashtirilgan. Quti tubidagi teshik o'yiqlariga tayoqchalar tiqilib, odam qo'g'irchoqlarni boshqarilishi mumkin bo'lgan. Shu tarzda harakat yuzaga kelgan. Keyin esa sahnalar, butun boshli pyesalar o'ylab topilib va qo'g'irchoq teatri paydo bo'lgan, deyish mumkin.

Antik davlatlar qulab, ular o'rni yangi mamlakatlar yuzaga kelgach, sodda qo'g'irchoqlar "Vifleym qutisi" nomi bilan kichkina qutilar shaklida kelgusi avlodlarga meros bo'lib o'tgan. Bu qo'g'irchoq teatr shakli hali hanuz yashab kelmoqda. Ular rumin "Vifleym"i, polyak "shopka"si, ukrain "vertep"i, belorus "batleyka"si nomi bilan saqlanib qolgan.

Italiya Yevropaning eng "qo'g'irchoqboz" mamlakati hisoblanadi. Italyanlarning qo'g'irchoq teatri tomoshalari tarixi nisbatan XVI asrdan aniq namoyon bo'la boshladi. Uning rivojlanishi opera san'ati taraqqiyoti, "belkanto" aytish uslubi, baletda "puantada o'ynash" mahorati va

yodlangan replikalarga asoslangan dramatik teatr bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Marionetka qo'g'irchoq teatri opera xonandalaridan, balet raqqoslaridan, dramatik artistlar tomoshalaridan nusxa ko'chirgan. Natijada XVII asrga kelib, marionetkalar qo'g'irchoq teatri o'zining sayyor hayoti bilan xayrlashgan. Marionetka teatri o'sha davrning mashhur teatrlari kabi o'zining kichik teatrlariga ega bo'ldi. Ipli qo'g'irchoqlar mashhur opera spektakllari qoidalariga monand ravishda o'zlarining kichik shakldagi tomoshalarini ko'rsatishardi. Ular uzoq davom etadigan besh pardali pyesalarni ham tomoshabinlar talabiga binoan ijro qilishgan. Garchi, italyan an'anaviy marionetkalari teatrida u qadar personajlar ko'p bo'lmagani va xatti-harakatlar ham rang-barang bo'lmaganiga qaramay, qo'g'irchoqbozlar insoniy xarakterlarni yaratishda va o'xshatishda yuksak aniqlikka erishishgan.

XVII asrga taalluqli ma'lumotlar orasida faqat marionetka teatrlarida o'ynalgan opera va spektakllar nomlari uchraydi. Nisbatan aniqroq ma'lumotlar XVIII asrga oid. Jumladan, venetsian teatri tarixchisi Gropponing 1766 yili chop qilingan "Venetsiya teatrlari haqida umumiy ma'lumotlar" kitobidan bilish mumkinki, 1746 yili bir badavlat odam dang'illama uyi yoniga yog'ochdan ixcham marionetka teatri binosini qurgan. Bu, Yevropada shuhrat qozongan Sen Jovanni Grisostomo venetsian teatrining miniatyura shakli edi. Mazkur teatr Venetsiyaning barcha zodagonlarini to'plagan holda ikki yil davomida qo'g'irchoq teatri spektakllarini ko'rsatib keldi.

Italiyadagi marionetka teatrlarining ajoyib tavsifini Stendal yozdi. 1817 yilda u mazkur mamlakatga sayohat qilar ekan, o'z kundaliklari asosida "Rim. Neapol. Florensiya" nomli asarida taassurotlarini chop qiladi. Mazkur shaharlarning har birida uni maftun qilgan narsa – marionetka teatrlarining spektakllari edi.

Hatto, XIX asr mobaynida ham marionetkalar teatri tomoshalarini italyan ommasi xush ko'rgan. Matbuotda doim ular nomiga aytilgan e'tiroflar ta'kidlangan. Ularda bir necha bor "Filando" marionetka teatri tilga olingan. Mashhur La Skala teatri raqqosalariga taqlid qilgan holda balerin qo'g'irchoqlarning fiorituralari va umuman, qobiliyatidan tomoshabinlar hayratlanishardi.

XIX asr ma'lumotlariga asoslanib italyan marionetka teatriga xos xususiyatni belgilash mumkin: garchi marionetka teatri ijodkorlari opera va dramatik teatrlar spektakllaridan nusxa ko'chirishsa-da, asta-sekin o'zlariga xos - "o'z" qahramonlarini yaratishga, "o'z" marionetik teatri pyesalarining shakllanishiga erishishgan.

Italiyan, umuman, Yevropa marionetka teatrlariga xos yana bir xususiyat bor. Mashhur spektakllardagi aktyorlarning ijrosiga taqlid qilgan va majburiy taqsimot ham bo'lgan, ya'ni, qo'g'irchoq boshqaruvchi hamda ular nomidan gapiradigan yoki qo'shiq aytadigan aktyorlar. Bu xislat bugungacha saqlanib qolingan. Zamonaviy qo'g'irchoq teatri spektakllarida musiqa va aktyor ovozlari *yozuvda* beriladi.

Fransiya marionetka teatrlari Italiyaga nisbatan oz bo'lsa-da farq qiladi. Ular ham juda mashhur aktyorlarga taqlid qilishgan, hatto raqobatlashgan. Ulardan eng taniqlilari Parij ko'rgazmalarida qatnashgan. Eng mashhur qo'g'irchoqbozlar esa, fransuz zodagonlari mehmonxonalarida spektakllar qo'yishgani haqida ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, XIX asrda qo'g'irchoq teatri fransuz shahar zodagonlari oilasining uy hayotiga ham kirib bordi. Ular o'z uylarida havaskor qo'g'irchoqbozlarning spektakllarini ko'rsata boshlashdi.

Marionetka teatri ko'plab Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Belgiya, Angliya, Chexiya, Germaniyada keng tarqaldi, ingliz qo'g'irchoqbozlarining faol xizmati tufayli Amerikada ham marionetka tomoshalari quloch yozdi. Chexiya bo'ylab maktab qoshidagi va havaskor qo'g'irchoq teatrlari soni mingtaga yetdi.

Germaniyada XVII-XVIII asrlarda marionetka teatri shakllanadi. XIX asrga kelib bu teatr hatto "nufuzli teatr" – prestij maqomini oldi. Bu teatr uchun mashhur, "Faust" asarining muallifi Gyoteday yozuvchilar maxsus pyesalar yozishgan.

Rossiyada marionetka teatri bilan tanishuv Anna Ioannovna davriga (1730-1740 yillarda hukmronlik qilgan) to'g'ri keladi. Ruslar dastlab marionetka qo'g'irchoqlarini "chiquvchi" deb atashgan. XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab rus tiliga "marionetka" so'zi muomalaga kirib keldi. Biroq, XIX asr o'rtalariga qadar marionetka teatri spektakllarini faqat yevropaliklar qo'yishgan. Ular Rossiyaga XVIII asrda Yevropada shakllangan o'z qo'g'irchoqlarini, va u bilan bog'liq tomoshalarini olib kelishgan. Xorijlik qo'g'irchoqbozlar o'z tomoshalari uchun qulay binolarni ijaraga olishgan.

1749 yilga kelib Peterburgda marionetka teatri tomoshalari uchun maxsus "komediant ombori" qurilgan edi. Lekin, tomoshabinlar uchun bir noqulaylik mavjud edi. Bu ko'pchilik tomoshabinlarning xorijiy tillarni tushunmasligidir. Oqibatda pyesadagi matnlarni qisqartirishga, hatto, ayrim sahnalardan voz kechishga to'g'ri kelardi. Bular o'z navbatida tomoshani matnsiz, pantomima nomerlaridan iborat divertismentlar (tryuk, sirk nomerlari, maishiy sahnalar) shaklda bo'lib qolishiga olib keldi.

Masalaning e'tiborli tomoni, marionetka teatrining murakkab texnikasi bir qancha mahalliy qo'g'irchoqbozlarni ish bilan band qilardi. Xorijliklar uchun esa, katta truppani o'zi bilan olib yurish foydali emas. Shu sababdan tomosha joylarida ikki-uch ijrochini yollab, ularga ikkinchi darajali rollarni ishonib, ularga qo'g'irchoq boshqarishni o'rgatishgan. Keyinchalik bu yordamchilar marionetka teatri sirini o'zlashtirib, iplar yordamida qo'g'irchoq boshqarishni o'rganib, o'zlari xorijiy o'qituvchilari bilan xayrlashib mustaqil ishlay boshlaganlar. Natijada XIX asr oxirida marionetka teatri tomoshalarini nafaqat Moskva, Peterburg, qolaversa, Rossiyaning boshqa yirik shaharlarida bo'ladigan xalq sayllarida ham ko'rish mumkin bo'lib qoldi.

Xalq qo'g'irchoqbozlari marionetka teatrining murakkab texnikasini o'z chiqishlarida o'zlashtirib, takomillashtirib borishdi. Ularning tomosha ko'rsatadigan doimiy binolari yo'q edi. Qo'g'irchoq teatri tomoshalarini yarmarka yoki sayllarda ijaraga olingan joylarda vaqtincha parusinali (kanopdan to'qilgan qalin mato) balaganda ko'rsatishardi. Bunday qurilmalarni XX asrning 20 yillari boshlarida ham Moskva bog'lari va saylgohlarida uchratish mumkin edi.

Eng muhimi Rossiyada ham xuddi xorijdagidek uy qo'g'irchoq teatrlari keng yoyildi. Aynan ular asosida XX asr boshlarida birin-ketin havaskorlik qo'g'irchoq teatr-studiyalari yuzaga keldi.

Rossiyada professional qo'g'irchoq teatrini yaratishga hammadan ko'ra Slonimskaya va Yefimovlar ko'proq jon kuydirishdi. Ularning spektakllari premyerasi 1916 yil fevralida bo'lib o'tdi. Ammo, ular yaratgan teatrning hayoti qisqa bo'ldi. Slonimskaya o'zining ayrim studiyachilari bilan Rossiyadan chet mamlakatlarga chiqib ketishdi va "marionetka teatr"i tarqadi. Ammo, Sankt-Peterburgdagi marionetka teatrining ijodiy jamoasi ulkan muvaffaqiyatlar bilan o'z ijodiy ishlarini davom ettirdi.

ASOSIY SYUJETLAR VA QAHRAMONLAR

Qo'g'irchoq teatri yashab qoldi va abadiy ekanligini ko'rsatdi. Bu faqat tomoshabinlarga bo'lgan muhabbat bilan ifodalanmaydi. Gap shundaki, qo'g'irchoqchilar shunday qahramonlar o'ylab topishganki, ular maqol va matallar kabi xalqda mashhur bo'lgan. Ularni o'zini, ularning hazillarini, o'tkir so'zlarini hamma bilgan va sevgan.

Qo'g'irchoq teatrlarida qadimdan boshlab yuz yillar davomida yashagan tipik obrazlar bo'lgan. Masal va afsona qahramonlari, folklor va qadimgi adabiyot personajlari bilan bir qatorda dolzarb "mashhur figuralar", "portret" qo'g'irchoqlar ham bo'lgan.

O'rta asrlarga oid qazilmalarda olimlar topishgan figuralar orasida boshi noto'g'ri shaklda, burni ilgakli, orqasida bukri bor va qorni katta haykalcha uchraydi. Bu qadimgi Rim personaji, antik xalq komediyasining qo'g'irchoq qahramoni – Makkus edi.

Italyanlar XVI asr boshlarida aynan undan o'z xalq qahramonlari – Pulchinellani “chizib olishgan”. Bu “xo'rozcha” tomoshabinlarga shu qadar yoqdiki, tezda u barcha xalq bayramlari, karnavallari va balaganlarining ishtirokchisiga aylandi. Mashhur italyan niqoblar teatri – komediya del arte paydo bo'lganida boshqa qahramonlar singari Pulchinella ham ular orasidan joy oldi.

Komediya del arte professional dramatik Yevropa teatrining ajdodlaridan biridir. Ana shu yerdan marionetka teatriga ko'plab mashhur qahramonlar yo'l oldi: ahmoq, xasis savdogar Pantalone, sergap Shifokor, xizmatkorlar Brigella, Arlekin, Kolombina, shilqim Tartalya va boshqa. Ular ijro etilayotgan pyesaga qaramay spektakldan spektaklga ko'chib yurishgan. Hatto, mashhur pyesaga duch kelishsa ham unda o'z o'rinlarini topa olishgan.

Qo'g'irchoqchilar sayohat qilishni yaxshi ko'rishgan. Ular o'z tomoshalari bilan qishloqlar, shaharlar, mamlakatlarda yurishgan. Va Pulchinellani vaqt o'tishi bilan turli xalqlar sevib qoldi, bir necha avlodlar o'tgach, ko'plab mamlakatlarda o'zlarining umumxalq suyuqlilari – italyan qahramonining aka-ukalari paydo bo'la boshladi. Bu Fransiyada Polishinel, Angliyada Panch, Rossiyada hammaga ma'lum Petrushkaning (yoki Petr Petrovich Uksusov) bolaligi, O'zbekistonda Kachal polvon.

Yana taniqli fransuz qo'g'irchoq qahramoni – Lya'fler. Shuningdek, uning kichik ukasi Gin'ol. Uning xotirasiga bag'ishlanib bu mamlakatdagi har bir qo'g'irchoqlar tomoshasi hozirgacha “Gin'olem” deb yuritiladi.

Germaniyada ham o'zining milliy qo'g'irchoq qahramoni obrazi bo'lgan. Uni turlicha atashgan: Kasperle, Gansvurstom, Pikkexeringom. Germaniya qo'g'irchoqchilarida bir yo bir qancha pyesalar, sahnalarning aniq matni bo'lib, ularni tanlov asosida va sharoitga qarab o'ynashgan.

Gin'ol va Kasperlening Chexiyalik akasi – Kashparek. Hatto, Pragada unga va uni yaratgan Matey Kapetskiyga oq marmardan haykal o'rnatilgan. Chexoslovakiyada yana ikki personaj ham undan kam emas darajada mashhur: yuzaki meshchan va mijg'ov ota Speybl va uning o'g'li – quvnoq, hayotdan shod Gurvinek. Ularni Yozef Skupa² yaratgan va

²Chex qo'g'irchoq san'atining ustasi, marionetka qo'g'irchoqni virtuozi boshqargan.

o'zining sevimli qahramonlari bilan katta spektakllar qo'ygan, "Speybl va Gurvinek" teatri jahondagi eng mashhurlaridan biriga aylana oldi.

Umumxalq sevimli qahramonlarini o'ylash ingliz qo'g'irchoqchilariga ham nasib qilgan - Enn Xoggart, Jon Basla. Shuningdek, kichkina eshakcha Maffin. Tez orada Maffinning ko'plab do'stlari (Tuyaqush, Zirot, It, Pingvin) paydo bo'ldi - ular birgalikda sayohat qilishardi. Va ular faqat ingliz bolalarining sevimli qahramonlariga aylanishmadi.

Yuqorida tilga olingan qo'g'irchoqlarning ayrimlari an'anaviy qo'l qo'g'irchoqlardir, lekin ularning bari qoidaga muvofiq marionetka ham bo'lishgan.

Marionetka teatri repertuari qadimdan rang-barang. Italiya, Ruminiya, Germaniya olimlari isbotlashdiki, "Qirol Lir", "Romeo va Julyetta", "Faust" kabi jahon adabiyotining g'ururi bo'lgan asarlar syujetlari faqatgina Shekspir va Getyogacha og'zaki ijodda bo'lmasdan, qo'g'irchoqchilar tomoshalaridan ham o'rin egallagan edi. "Faust" haqidagi afsona borasida Getyo hal qiluvchi taassurotini aynan marionetka teatrida olgan ekan.

Albatta turli davrlarda, turli mamlakatlarda qo'g'irchoqchilar tomonidan qadimgi yunon mifologiyasi, ertaklari, masallari, jiddiy yozuvchilarning adabiy asarlari syujetlari o'ynalgan. Bular "Qizil shapkacha", "Sohibjamol va mahluq", "Zolushka", "Mitti bola", "Qo'g'irchoq shahar", "Gulliver liliputlar mamlakatida", "Petya va bo'ri", "Kichkina shahzoda", "Kolombina", "Suv parisi" va hatto, "Graf Monte Kristo", "Yigirma ming lye suv ostida" va boshqa.

Lekin, eng mashhuri va eng ardoqli tomoshalar - bular hoynahoy o'sha Makkusning avlodi qatnashgan to'rt aka-ukalardir: Pulchinella, Polishinel, Panch, Petrushka. Ular - quvnoq, beparvo, topqir va doim boshqalarni ahmoq qilib g'olib bo'ladigan xalq qahramonlari. Xususan, bu Petrushka ishtirokidagi ko'plab sahnalardan ma'lum. Birida u yori bilan uchrashadi, boshqasida ot xarid qiladi, askarlik ishini o'rganadi, shayton bilan olishadi va hatto, o'limni ham tepib yuboradi.

Uch yuz yildan oshiq davrdan buyon Petrushka haqida komediya hech qanday o'zgarishsiz yashab kelmoqda. Artistlar buning isbotini xalqdan topishdi, adolat uchun kurashish g'oyasi abadiy, u o'limdan kuchli, yuksak, qudratlidir. Va Petrushka boshqa mamlakatlardagi qo'g'irchoq birodarlari singari aynan bu g'oyani yorqin ifodasi bo'lib qoldi.

MARIONETKA TEATRINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI **(Qo'g'irchoqboz-rassom Sergey SEDUXIN bilan suhbat asosidagi** **qaydlar)**

Yevropa marionetka teatrida vaga – qo'g'irchoqni boshqaradigan moslama ikki xil, ya'ni, vertikal-tik va gorizontal-yassi bo'ladi. Vertikal vagalar kishilar va ikki oyoqli mavjudotlarni ifodalovchi qo'g'irchoqlar uchun mo'ljallangan. Gorizontal vagalar esa hayvonlar yoki to'rt oyoqli mavjudotlarni boshqarishga moslashgan.

Osiyo marionetka teatrida, xususan, Yaponiyaning "Takedo" teatrida qo'llanadigan vagalar bir-biridan u qadar farq qilmaydi. Shimoliy Hindistondagi teatrlarda vaga mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Ularda iplar aktyorlarning barmoqlariga bog'lanadi.

Marionetkaning turlari:

Birinchisi – Sitsiliya marionetkalari bo'lib, ularda qo'g'irchoqlarning boshi va gavdasi bir simga mahkamlanadi. Natijada ular kam harakatli bo'ladi. Gorizontal vaga orqali qo'g'irchoqning qo'l va oyoqlariga o'tkazilgan iplar bilan boshqariladi.

Ikkinchisi – sim faqat qo'g'irchoqning tanasiga, boshi esa ipga mahkamlanadi va u harakat qila oladigan, boshqaruvchiga qulay bo'ladi.

Uchinchi turi esa, faqat iplar yordamida boshqariladigan qo'g'irchoqdir. Gorizontal va vertikal vagalar hisobiga qo'g'irchoq harakatchan bo'ladi.

Marionetka teatri uchun sahna maydonchasi o'ziga xos tarzda quriladi va u boshqa qo'g'irchoq teatrlari turlaridan tubdan farq qiladi. Jumladan, aktyorlarning harakatlanishi uchun tropa (yo'l) deb nomlanadigan maxsus dastgohlar tayyorlanadi. Qo'g'irchoqlar uchun yasalgan dastgohlar marionetkalar uchun sahna vazifasini bajaradi. Aktyor va qo'g'irchoq o'rtasida, boshqaruvchini yashiruvchi ort parda mavjud. Shuningdek, aktyorlarni tomoshabinlar nigohidan yashiruvchi maxsus pardalar konstruksiyasi (padugalar, arlekinlar, kulislar, sahna oldi pardalari) tayyorlanadi.

Marionetka teatri qo'g'irchoqlarini yasash uchun ishlatiladigan materiallar. Marionetka uchun material sifatida terrakota (kuydirilgan qizg'ish-jigar rang loy), fil suyagi, kumush va papye-mashe (yelim, gips va bo'r aralashtirilgan qog'oz massa), lok va teri ishlatilgan. Hozirda asosan taxta va papye-mashedan foydalaniladi.

Marionetkalarining ko'p qismi yumshoq daraxtlar taxtasidan, xususan, jo'kadan tayyorlanadi. Chunki bu material ishlov berishga qulay

va asosiysi, qo'g'irchoqlar mustahkam hamda uzoq muddatga yaraydigan bo'ladi. Ba'zan spektakl uchun zaruratga qarab, boshqa materiallardan – metall, plastik, hamda papye-mashedan foydalanilgan. Marionetkaning harakatlanadigan qismlarini biriktirishda bog'ichlarning turli xillari ishlatiladi: qattiq (simdan (sharnirli (oshiq-moshiqli), osma va bosqa)) va yumshoq (qarmoq ipi yoki teridan).

Marionetka mexanikasi. Qo'g'irchoqlarning richag - dastak va prujina, egiluvchan rezina hamda qarmoq iplari qo'llaniladigan boshqa turlaridan farqli tarzda posangi (protivoves) tizimidan foydalaniladi. Masalan, qo'g'irchoqning ko'zini harakatga keltirishda bu tizim juda zarur hisoblanadi. Bunda sharcha qarmoq ipi va tepki yordamida o'qqa kiyintiriladi, o'q gabit va tepki, sharcha-ko'zni birlashtirgan qarmoq ipda boshqaradi. Sharcha-ko'zga tortiladigan yoki asliga qaytaradigan prujina biriktirilib, u qo'g'irchoqning ko'zini ochib yopishga imkon beradi. Marionetka qo'g'irchoq'i ko'zini harakatga keltirishda bu tizimni qo'llab bo'lmaydi. Bunda o'qqa erkin kiyintirilgan sharcha-ko'zni harakatga keltirish uchun vagaga boruvchi ipga bog'langan yuk qo'yiladi. Ipning tepaga tortilishi va o'z navbatida tushirilishi hisobidan marionetkaning ko'zlari ochilib yopiladi.

Marionetkani boshqarish uslubi. Marionetkalar o'z qurilmasi va boshqaruv uslubi bilan boshqalardan farqlanadi. Boshqarishning keng tarqalgan turi - sim chiviqdagi (prut) qo'g'irchoq hisoblanadi. Bunday qo'g'irchoqning boshi va tanasi odatda taxta bo'lagidan yasilib, qo'l va oyoqlari erkin tebranib turadi. Qo'g'irchoq boshiga metall prut (ilmoq – tutqichi yuqorida) mahkamlangan bo'lib, uning yordamida qo'g'irchoqboz marionetkani harakatga keltiradi. Shunday marionetkalar endilikda g'arbiy Yevropaning ayrim xalq qo'g'irchoq teatrlarida keng qo'llanilmoqda.

Marionetkalarning nisbatan murakkab turi – tros (elastik simlardan yoki kanopdan eshilgan pishiq arqon) va iplar yordamida boshqariladiganidir.

Qo'g'irchoqning harakatlanuvchi bo'g'imlar – yelka, bel, tizzalar, ba'zan bo'yin, tirsaklar, qo'l panjalari, tovonlar iplarga bog'langan bo'lib, iplarning yuqori uchlari unchalik katta bo'lmagan xoch tarzidagi yog'ochga biriktirilgan bo'ladi. U odatda vaga yoki koromislo deb yuritiladigan bosh prutdagi tutqich bilan birlashtiriladi.

Tizza iplariga biriktirilgan vaganing harakatga keltiradigan bo'lagini o'ynatish bilan qo'g'irchoq yurituvchi navbat bilan qo'g'irchoq oyoqlarini ko'taradi va shu orqali uni qadam tashlatadi yoki yugurtiradi. Qo'llarga boruvchi iplarni tortish bilan imo-ishoralar bajariladi.

Zamonaviy professional qo'g'irchoq teatrlarida qo'llaniladigan marionetkaning asosiy turi faqat iplar vositasida boshqariladigan qo'g'irchoqlardir. Marionetka iplari soni asosan 20 tagacha yetadi. Undan ko'p harakatlanadigan bo'g'imlar soni qo'g'irchoq bajarishi kerak bo'lgan jismoniy vazifalar bilan bog'liqdir. Ikkita bosh, ba'zan yelka iplari prutini almashtirish qo'g'irchoq yurituvchidan nihoyatda katta mahorat talab qiladi. Qo'g'irchoq boshqaruvchining mahorati harakatlar diapazonini kengaytiradi.

Marionetkachi aktyorning uzoq muddat harakatda bo'ladigan qo'llari qo'g'irchoqni ushlab turish uchun juda kuchli bo'lishi shart emas. Unda qo'g'irchoqlar yoki marionetkalarining poza va plastikasidagi o'zgarishlarni seza oladigan va farosat bilan uni harakatini his qila oladigan sezuvchanlik qobiliyati bo'lsa bas. Chunki, ipdagi ozgina harakat o'sha zahoti qo'g'irchoq yo marionetkada o'z ifodasini topadi. Shuning uchun boshqaruvchining o'z plastikasidagi bo'shanglik o'sha zahotiy oq personajda salbiy aks etishini unutmaslik zarur. Aktyor albatta, marionetka mikroharakatlari, jestlarini aniq saralay olishi va to'g'ri bajarishi kerak. Marionetkani boshqarish hovliqmalikni yoqtirmaydi. Faqat harakatlarning mantiqiy izchilligi, aktyorlar tarkibining uyg'unligi va marionetka anatomiyasining imkoniyatlarini tushunish rejissyor va aktyorlarning ijobiy natijaga erishishiga olib keladi.

* * *

S.Seduxinning marionetka haqida keltirgan boshqa ma'lumotlari

1. Rus tilidagi "kukla" so'zi, slavyanchadagi "kukol" – ya'ni qaytarma qalpoq, bosh kiyim ma'nosini anglatadi. Ulardan diniy marosimlarda turli mavjudotlar, hayvonlarning qiyofasini ifodalash uchun foydalanishgan.

2. Qo'g'irchoqlarning marionetka turidan birinchi bor antik Yunoniston va qadimgi Rimda foydalanilgan. Bu vaqtda esa Xitoy va Hindistonda marionetka ma'lum edi. Yevropada marionetkaning zamonaviy turi rivojlanishiga turtki o'rta asrlarda bo'ldi, sayyor qo'g'irchoqchilarni gulxanlarda bid'atchilar bilan birga yoqishgan yo shaharlardan haydashgan. Shuningdek, aksincha cherkov va hukmdorlar o'z maqsadlari yo'lida ulardan foydalanishgan.

3. Bugungi kun estradasida marionetkalar keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Qo'g'irchoq teatri aktyorlari marionetkalar bilan estrada nomerlarini yaratishmoqda. Hatto, shunday teatrlar borki, ular o'z repertuarida faqat marionetka qo'g'irchoqlarini ishlatishadi. Rezo Gabriadze (kinodramaturg, "Mimino" badiiy filmi muallifi) rahbarligidagi

Tbilisi marionetkalar teatri bunga misol bo'la oladi. Sankt- Peterburgda Demmeni nomidagi marionetka teatri va "Oltin niqob" sohibi, "Potudan" qo'g'irchoq teatri ham bu sohada yetakchilik qiladi. Toshkent davlat san'at institutini tamomlagan mashhur kinorejissyor Timur Bekmambetov "Qo'g'irchoq uyi" nomli xususiy marionetka teatrini tashkil qilgan. Asosan, Osiyodagi Xitoy, Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya mamlakatlarida milliy an'anaviy marionetka teatlari hozirgacha faoliyat olib bormoqda.

O'ZBEK QO'G'IRCHOQBOZLARINING ESTRADA NOMERLARI

Marionetka teatri masalalariga bag'ishlangan adabiyotlarni qunt bilan o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, qo'g'irchoq teatrining turlari sinteziga alohida diqqat qaratish zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Andrey Petrovets va Fatxulla Xo'jayev planshetli va marionetka qo'g'irchoqlarini an'anaviy teatr usullari bilan uyg'unlashtirib, bir qator estrada nomerlarini yaratayotganlari bilan e'tiborlidir.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Andrey Aleksandrovich Petrovetsning izlanishlari "metamorfoza-qo'g'irchoqlar", ya'ni, boshqa tusga kirish uslubiga tayangan. U yaratgan qo'g'irchoqlar tomoshabinlarning ko'z oldida jonlanib boshqa tusga aylanishadi va hayratga soladi. Masalan, doira sohibjamol qizga aylanadi. Ijodkorning eng mashhur nomeri "Jo'jacha" deb nomlanib, unga tanlangan "qarang, qanday go'zal bu olam!" qo'shig'i bilan barchaga esda qoladi. Jo'jacha tomoshabinlarning oldida jonlanib hayotning ezguligi-yu quvonchlarga to'laligini, go'zalligini baholaydi. Qo'g'irchoqbozning yana bir nomerida oddiy sharcha va mato bo'lagi sahnada jonlanib, juda quvnoq masxarabozga aylanadi. Andrey Petrovets o'zining barcha ijodiy nomerlarining muallifi va ijrochisidir, aktyorning fantaziyasi, kompilyasiya (musiqa saralash va uni uyg'unlashtirish) natijasida mavzuga mos ohanglar tanlashi tasannoga sazovor. Uning bu bilimdonligi va o'ziga xos ijro usuli barcha yoshdagi tomoshabinlarga zavq bag'ishlaydi. U deyarli butun dunyoni kezib chiqqan O'zbekistonlik qo'g'irchoqbozdur.

Yana bir dunyo kezgan marionetka qo'g'irchoq ustasi – Fatxulla Xo'jayevdir. Uning o'ziga xos ijodi san'atshunoslik fanlari nomzodi, teatrshunos Tohir Yuldoshev ishlarida ham e'tirof etiladi. U – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, Respublika qo'g'irchoq teatri

aktyori, rejissyori, qo'g'irchoq ustasi, zangori ekran orqali barchaga tanish va sevimli "Karlo ota"si, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining qo'g'irchoq teatri san'ati kafedrasining ardoqli murabbiysidir. Respublika qo'g'irchoq teatrida rejissor sifatida sahnalashtigan spektakllari: "Uch quvnoq cho'chqacha", "Cho'p qo'g'irchoq", "Qarsildoq" ("Shelkunchik"), "Quvnoq arava" bolalarning sevimli tomoshasiga aylangan. Fatxulla Xo'jayevning sevimli nomerlariga aylangan yakkaxon repertuari ham rang-barang va takrorlanmas darajada o'ziga xos. "Arab go'zali"ning zavq keltiruvchi raqsi, "Xorazm yigiti"ning raqsi, sharchalar bilan jonglyorlik qilayotgan masxaraboz, "makarena"ga o'ynayotgan qo'g'irchoq va noodatiy qora kvadrat fikrning isbotidir. Tomoshabinlarga zavq beradigan bu qo'g'irchoqlar usta san'atkor tomonidan o'ylangan va o'z qo'llari bilan yasalgan. Boshqaruv usuli Sankt-Peterburg marionetka teatrining asoschisi Yevgeniy Sergeyevich Dementi ixtiro qilgan Rossiya vagasiga asoslangan. Fatxulla Xo'jayev elda mashhur estrada nomerlari bilan Pokiston, Hindiston, Turkiya, BAAning Abu Dabi amirligida, Bahreyn, AQSHning Nyu-York shahridagi qo'g'irchoq teatr festivallarida qatnashgan. Uni bugungi kunda O'zbekistondagi yagona usta qo'g'irchoqboz-marionetkachi, deyish mumkin. Ijodkor va ijrochida ifodaviy plastika, professional sahna nutqi, yaxshi vokal imkoniyatlari, bir qancha milliy cholg'ularni chala oladigan iqtidor, qo'g'irchoq boshqarishda o'ziga xoslik uyg'unlashgan.

Endi Respublika qo'g'irchoq teatri repertuaridan o'rin olgan, qisman marionetka qo'g'irchoqlaridan foydalanilgan uch spektaklni ham tilga olish mumkin. Bular:

1. "Oltin kalitcha" - muallifi Ye.Borisova, sahnalashtiruvchi rassom V.Akudin, sahnalashtiruvchi rejissyor M.Bobojonov. Spektakl 1987 yili qo'yilgan. Bu spektaklda marionetkadan qisman, aynan Karabas Barabas tomosha ko'rsatayotganida Pyero va Arlekin marionetka qo'g'irchoqlari foydalanilgan.

2. "Karvonsaroy" - muallifi D.Yuldasheva, sahnalashtiruvchi rejissyor I.Yoqubov, sahnalashtiruvchi rassom R.Kamolitdinov. Spektakl 1990 yili qo'yilgan. Bu spektaklda O'zbekiston qo'g'irchoq teatri tarixida bo'lgan barcha qo'g'irchoq turlaridan foydalanilgan. Sandiqdan buxorolik raqqosa paydo bo'lib, raqsga tushadi.

3. "Chodir xayol" - muallifi V.Borisov, sahnalashtiruvchi rassom V.Akudin, sahnalashtiruvchi rejissyor SH.Yusupov. Spektakl 1995 yili qo'yilgan. Spektaklda marionetka qo'g'irchoqlar - Shoh, Kachal polvon, Dichaxon, Jallod va Vazir qatnashadi.

“Karvonsaroy” va “Chodir xayol” spektakllarida belpardada qo‘lqopli qo‘g‘irchoqdan foydalanilgan. San‘atning an‘anaviy shakllari zamonaviy tarzda ifodalangani, milliy cholg‘ulardagi jonli musiqaning saqlangani, qiziqchi-masxarabozlar, korfarmonning ishtirok qilayotganini tomoshabin ko‘radi. Syujet chizig‘ining o‘zi o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri qahramoni Kachal polvon (kal pahlavon) sarguzashtlaridagi yorqin yumorga o‘xshash Xo‘ja Nasriddin haqidagi ma‘lum latifalar asosiga quriladi.

Respublika qo‘g‘irchoq teatri repertuari bilan tanishuv shuni ko‘rsatdiki, marionetka qo‘g‘irchoqlari qisman ishlatiladi, faqat ular qatnashadigan spektakllar yo‘q. Faqat marionetkalar qatnashadigan va professional ishlatiladigan yangi ruhdagi spektakl ko‘rishni istaydi kishi. Lekin, bu yo‘l ancha olis va mashaaqatlidir.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning ma‘naviyatiga ustuvorlik berilayotgan ekan, faqatgina zamonaviy repertuari yaratish bilan cheklanib qolmay, qo‘g‘irchoq teatrining barcha turlarini, avvalo, marionetka boshqarish texnikasi mukammal egallanishini ham davr taqozo etmoqda.

MARIONETKA KONSTRUKSIYASI, TUZILMASI VA UNI BOSHQARISH. QO‘G‘IRCHOQLARNING TUZILISHI

Marionetka teatri qo‘g‘irchoqlari yog‘ochdan yasaliib, uchlari harakatchan bo‘ladiki, unga vaga deb nomlanuvchi alohida koromislodan (shayin) chiqayotgan iplar bog‘langan bo‘ladi. Vaga sterjen (tayoqcha), uning ma‘lum nuqtadagi o‘qiga mahkamlangan harakatchan koromislo (shayin) va harakatsiz uzun taxtachadan tashkil topadi. Koromislo (shayin) tebranishida koromislo chetlariga mahkamlangan ma‘lum iplar tortiladi, qo‘g‘irchoqda ular tizza iplariga muvofiq keladi. Koromislo (shayin) tomonlaridan birini ko‘tarish qo‘g‘irchoq oyog‘ini ko‘tarishga muvofiqdir. Shuningdek, asosiy iplar chakka, orqa, qo‘lga oid. Bu iplar qo‘g‘irchoqni faqat eng elementar harakatlarni bajartirishga xizmat qiladi. U yuradi, tiz cho‘kadi, u yo bu qo‘lini ko‘taradi, boshini aylantiradi, egadi. Agarda qo‘g‘irchoqqa qandaydir maxsus harakat qilish zarur bo‘lsa, unda har bir harakatga maxsus iplar bog‘lash kerak. Ular yigirma va undan ko‘proq bo‘lishi mumkin.

Marionetkaga xos asosiy kamchilik - pol tekisligini sezishdir. Ko‘pincha nevrospast bu hissiyotni, ayniqsa, marionetka og‘ir bo‘lganida boy beradi. Aktyor qo‘g‘irchoqni juda noqulay rakurslardan ko‘radi, shu

sabab, pol tekisligini sezishga o'rganish yetarlicha mushkul vazifadir. Avvaliga u yo bukkik oyoqlariga o'tkazadi, yo juda balandlikka ko'taradi va shunda qo'g'irchoq havoda muallaq qoladi.

Marionetka harakatlanish qonunlari:

Harakatlar aniq, matn bilan ritmik bog'langan, unga yo'nalgan bo'lishi kerak.

Harakatlar sxematik, obrazli bo'lishi va jonli mavjudotlar xatti-harakatlaridan nusxa ko'chirmay, faqat ularni sintezlashuvida bo'lishi zarur.

Qo'g'irchoq xatti-harakatlari uning turg'un holati bilan almashinib turishi kerak.

Xatti-harakatda ziqna, ammo, imkon boricha boy bo'lishi kerak. Bir vaqtini o'zida qo'g'irchoqning barcha bo'g'imlarini harakatga keltirishdan qochish zarur.

Nevrospast o'zida doim sahna maydonchasiga daxldorlikni his qilgan holda "teranlik" (mohiyat) tuyg'usini rivojlantirishi shart.

Nevrospast marionetkani texnik jihatdan sinchiklab tekshirishi va chetdan kuzatib, tegishli ifoda vositalarini o'rganishi zarur.

Oddiy tarzda ishlaydigan o'yinchoqlar

Amerikalik Piter Frayzerning mashhur "Qo'g'irchoq teatri" kitobida ko'rsatilgan har bir o'yinchoq akrobatik qo'g'irchoqlarga qo'llaniladigan alohida bir richagni (pishangini) namoyon etadi. Yuqoridan qo'g'irchoq yurituvchi boshqaradigan marionetka qo'g'irchoqlari ma'lum an'anaviy funktsiyalarni bajaradi.

Marionetka mexanizmi ko'pgina soya qo'g'irchoqlariga mutanosib bo'lishi mumkin. "Qutidagi Jek", qo'lqopli va tayoqchali (jezl) qo'g'irchoqlarni uyg'unlashuv manzarasini namoyon etadi. "Tayoqchadagi maymun" richagi (pishangi) soya qo'g'irchoqlarida ishlaganday tayoqchali (jezl) qo'g'irchoqlarga ham foydalidir. Bu o'yinchoqlarning ko'pchiligini kartondan qaychi yo maxsus pichoq bilan qirqib, ip bilan birlashtirish mumkin. Shuningdek, uni mahorat va qunt bilan qator asboblardan foydalangan holda yelimlangan fanerdan qirqish mumkin bo'ladi: qil arra, parma, kichkina egov, ombir va jilvir qog'oz.

Birlashtiruvchi yog'och qismlari uchun shplint va qurilma qayrilma qisqichlar bilan egilgan simlardan oson tayyorlanadi.

Yassi o'yinchoqlar bezatilgan va ular ko'p funksiyali bo'ladiki, dizayn ishiga katta imkoniyatlar beriladi. Kartondan qirqilgan o'yinchoqlar

tabiiy ko'rinishiga o'xshashini saqlashi jihatidan qog'ozda chizilganiga nisbatan muvaffaqiyatli chiqadi.

Marionetka

Marionetkalarining bir qancha turlari ma'lum. Bu yerda yuqoridan yog'och ilmoqqa mahkamlangan iplar bilan boshqariluvchi marionetka tasvirlangan.



Rasm 1.


1. Bu yerda marionetka turg'un holatda. Uni ilgakka ham osib qo'yish orqali devor dekoratsiyasini yaratish mumkin.

2. Pastdagi ipga bosim berish orqali marionetka oyoqlari harakatga keladi.


3. Ko'plab pozalarga ip va ilmoqlarning turli holatlari orqali erishish mumkin.

Rasm 2.

Karton va yigirilgan ip yoki arqon va shplintli yelimlangan fanerni ishlatgan holda marionetkani 150-600 mm va undan katta o'lchovda qirqib olish mumkin. Kartonli figuralar rangli zar qog'oz yo mato yordamida, applikatsiya tarzida bezatiladi. Yog'och figuralarda esa, akril yo afisha bo'yog'i ishlatiladi.



Rasm 3. Marionetkaning tarkibiy qismlari



Marionetkani tayyorlashda qanday material ishlatilishidan qat'iy nazar dag'al qog'ozdan qirqilgani tejamlidir. Sinov harakatlari tekis yuzada, qismlarni teshish va harakatni vizuallashtirish jarayoni uchun qismlarga aylantirishda amalga oshiriladi. Marionetkaning birlashtiruvchi qismlari – doiralar bir-biriga ustma-ust tarzda yopilib, harakatlanishni

ta'minlaydi. Birlashtiruvchi doiralar yelka va bel tomonga yo'nalganida ichkari va pastga, tananing ostki bo'laklari esa tashqarida harakatlanadi.


Birikadigan bo'laklarga teshiklar ishlatilayotgan materiallarga qarab igna, shtempel va qo'l parmasi bilan hosil qilinadi.

Rasm 4. Ip bilan birlashtirish va mustahkamlash

1. Karton figuralarining bir tomoniga yigirilgan ipdan tugun tugilib, kartonning boshqa tomoniga o'tkaziladi va yopishtiriladi.

2. Fanerli bo'laklar shnur (bog'ich, chiyratma ip) bilan har tomonga tugun orqali bog'lanadi. O'q yordamida, yog'och yuzalari o'rtasidagi metall qurilmalarini ushlovchi suriluvchan rezba nisbatan ishonchlidir.

3. Ip bilan mustahkamlash uch bosqichdan iborat. Bir tomondan




boshqasiga qarab yelka va bel ulagichlar hamda figura ostida ikki qo'ndalang iplar va qo'llarni vertikal yo'nalishda mustahkamlanadi. Osmo ipni yengil kuch bilan harakatga keltirish uchun iplar yetarlicha qayishqoq bo'lishi kerak.

Marionetka tuzilishi

Gips shaklidagi yo yog'och ostovdagi oddiy marionetkalar matodan, nisbatan detallari ishlangan marionetkalar karkas simdan qilinishi mumkin. Ba'zan tayyorlashning turli usullari birgalikda qo'llanilgan. Ularda yengil matoli tanaga yog'och bosh, qo'llar va oyoqlar qilingan. Marionetkani tayyorlash rejasi birinchi va muhim vazifadir. Marionetka odatda bo'yi 450 mmdan 900 mmgacha, ba'zan 300 mmgacha yo inson bo'yi baravar tarzda ham tayyorlanadi. Kichik marionetkalarining kam vaznligidan boshqarish oson, katta marionetkalar esa uzoqdan yaxshi ko'rinadi. Marionetkalarining o'lchami uning kelgusida qo'llanilish sharoitlariga muvofiq tanlanadi.

Marionetkalar alohida bo'laklardan yig'iladi, keyinchalik ular birgalikda jamlanadi. Ayniqsa, har bir bo'lak o'lchamini butun qo'g'irchoq o'lchamiga mutanosibligini saqlash juda muhim. Keyingi rasmda inson

figurasi ko'rinishida bajarilgan marionetkaning ayrim bo'laklari mutanosibliqi taqdim qilingan.



Rasm 5.


Bosh o'lchami qoidaga ko'ra umumiy bo'ydan 7,5 birlik. Tirsak va ko'krak birlashishi esa bir darajada. Yelka kengligi 2 birlik, bo'y esa - 1,5 birlik. Qo'llar esa yelka o'rtasidan 3 birlik pastda. Tizzadan yergacha oyoq uzunligi bo'ydan 2 birlik. Kaft balandligi sochdan iyakkacha bo'lgan yuz balandligi bilan mos, tovon esa 1 birlikni tashkil etadi. Ayol figurasida yarim bo'yga qarab yelka va bel ingichka, tosi kengroq, oyoqlari kalta bo'ladi.

Ulanishlar bel va tos atrofidagi yon harakatlaridan boshqa barcha harakatlar bajarilishini ta'minlaydi. Yon harakatlari boshqarish qiyinligi bilan bog'liq. Shunga qaramay, rejalashtirishda qo'g'irchoqlarning barcha harakatlarini hisobga olishga intilish zarur. Viktorian marionetkalarida belda ulanish kamdan-kam uchraydi, shu sababdan, mazkur kitobda marionetkalar tasvirlanishida har birining vazifasi tasniflanadi. Qo'g'irchoqlar mobilligi yo aniq mutanosiblikka erishishga ko'p ham urg'u berib bo'lmaydi.


Akrobatik marionetkalar boshqarishda nisbatan yengil va o'lchamda ham yetarlicha kichkina (450 mm yo yanada kichikroq) bo'ladi, ularning masofadan ko'rinishini yaxshilash uchun esa, ko'pincha tanaga nisbatan bosh katta o'lchamda qilinadi.

Lattali (matoli) qo'g'irchoqlar

Bunday qo'g'irchoqlarni ijodkorlik bilan yaratishning ko'plab yo'llari bor. Masalan, bo'yi 45 mmdagi qo'g'irchoqni rejalashtirish uchun 15 mm kvadrat qog'ozdan yoki 60 mmli qo'g'irchoqqa 20 mm kvadrat qog'ozdan nusxa olinadi. Namunadagi figuradan nusxa ko'chirishdan keyin uning kengligiga atroflama chiziq uchun 5 mm qo'shib, mato qirqiladi (6,7 rasmlar).



Rasm 6.



Rasm 7.

Tananing ikki qismini kesilgan joyidan bir-biriga qo'shib tikiladi. Bo'yin, bilak, to'piq yonida bo'shliq qoldiriladi. Qo'g'irchoq tanasi o'ng tomonga o'girib to'ldiriladi. Tizza, tirsak va tosga ikkita chok tushirilishi oshiq-moshiqli (sharnirli) qilib birlashtirishni ta'minlaydi, ingichka chiziq bilan berilgan yelkadagi choklar o'rtasidagi iplar pishiq mahkamlanishi harakatlarni yengillashtiradi. Bosh, kaft va tovonni yaxshisi kigizdan qilmoq kerak. Ular ham teskarisiga o'girilib tanadagidek to'ldiriladi. Keyin qo'g'irchoqning bo'yin, bilak va to'piqlari atrofi to'latiladi va yelimlanadi yo tikiladi.

Quloq, ko'z va og'iz to'liq applikatsiya yo chizilgan bo'lishi mumkin. Ba'zan papye-mashedan niqob kigiz boshga kiydiriladi. Sochlar boshni o'zida tikiladi, qo'g'irchoq kafti to'ldirilgach barmoqlar orasi ochiladi va sinchkovlik bilan tikiladi.


Matoli marionetkalar orqasida va har bir tizza ulagichlarida posangi yuk sifatida kichkina qo'rg'oshin qo'yilganida vazni yengil bo'ladi. Vazn yengilligiga qaramay matoli marionetkalarni boshqarish qiyin. Ularni yog'ochoyoq yo bir g'ildirakli velosiped kabi qattiq moslamalar bilan birga qo'llash yaxshiroq.

Rasm 8.


1. Boshga ulangan bir ip butun masxarabozni ushlab turibdi: iplar tizzalarga mahkamlangan xochsimon ilmoqlarda, ko'tarilgan kaftlar esa xochsimon ilmoqdan o'tkazilgan iplarga bog'langan.

2. Bosh boshqaruvchi - ilmoqdagi xari (perekladina) u tomondan bu tomonga aylanib, yurishni ta'minlaydi.

3. Teshik orqali o'tkazilgan ip bilan manipulyatsiyalar qilish orqali kaftlar ko'tariladi va tushiriladi.



Rasm 9.





1. Qo'llar va tovonlar yog'ochoyoqqa mahkamlangan, bosh esa iplar bilan ushlab turilibdi. Qo'g'irchoq yurituvchi yog'ochoyoqni tomoshabinga ko'rsatmasdan ushlaydi. Bu sirk qo'g'irchoq'ining sodda va nisbatan samarali modeli.

2. Qo'g'irchoq bir g'ildirakli velosiped o'rindig'iga yopishtirilgan, uning oyoqlari pedallarga mahkamlangan. Tizzalarni ko'tarib tushiradigan xari (perekladina) teshigi orqali o'tkazilgan ipga mahkamlangan qo'llar

ko'tariladi. Butun vaznni ushlab turgan iplar yelkalar orqali mahkamlangan.

Bevosita modellashtirish



10 rasmda bevosita modellashtirilgan marionetka ko'rsatilgan. Qulaylik uchun har bo'lak alohida tasvirlanadi, ammo modellashtirishdan avval, keyin birlashtirish mumkin bo'lgan bosh va kaftdan boshqa bo'laklarning barchasi birlashgan bo'lishi kerak.



11 rasmda bosh qurilishi bosqichlari ko'rsatilgan. Bu tananing boshqa bo'laklariga ham tegishlidir. Simli ostov to'ldiriladi va nam qog'oz yo suvli yelimli narsa bilan o'raladi. Keyin u bog'ich (bint) bilan tarang qilib o'raladi. Laminarlangan yumshoq qog'ozli papye-mashe yoki plastik elementlar ko'rinishidagi ostovga qo'g'irchoqning qo'shimcha bo'laklari kiydiriladi. Yuza tayyor bo'lgach, keyinchalik kerakli tasvirlarni chizish uchun jilvirlatish va laklash zarur. Buraladigan ko'zni ipli ulanishlarda, faqatgina yog'ochli qo'g'irchoqlarda ehtiyotkorlik bilan qo'llash mumkin. Shu jihatdan qo'g'irchoqning simli ostov tuzilishida iplar uchun ilgaklar kiritilgan bo'lishi kerak. Tizza va tirsaklar bo'g'imlari shamirlari model shakli bilan chegaralanadi, bo'yin, yelka va bilak bo'g'imlari erkin harakatlanadi.

Plastilinli namunalar yaratish

Qo'g'irchoq boshi, qo'llari va oyoqlarini tayyorlashning mazkur metodini "bilvosita modellastirish" deyish mumkin. Shuningdek, uni qo'g'irchoq tanasini tayyorlashda ham foydalanish mumkin, lekin, odatda tana yog'ochdan qirqiladi. Dastlab, namuna bo'laklari plastilindan tayyorlanadi, ingichka sim yordamida ikki qismga bo'linadi. Boshni vertikal bo'yicha ikkiga qirqish qulay.



Ikkita yarimta plastilin yuzada yotibdi, atrofida ip bilan to'qilgan, loy yoki plastilin qatlami bilan mahkamlangan karton. Bu holatda quti gips quyilishiga tayyor. Litrlı ko'za gips bilan to'ldirilgan. Idishga suv solinadi, suv qutini to'ldirishga va yarimta plastilinlarni 20 mmga qoplashiga yetishi zarur.


Ko'pincha gips kukuni to suv yuzaga chiqmaguncha, suyuqlik esa qota boshlamaguncha qoqiladi. Bunday holatdagi aralashma kremni eslatishi kerak. Keyin aralashma ehtiyotkorlik bilan boshning yarimta plastilinlari qoplamaguncha qutiga quyiladi. Bir necha minut davomida gips issiqlik ajralishi bilan cho'kib boradi.

Taxminan 15 daqiqalardan keyin gips shundoq qotadiki, uni qutidan olsa bo'ladi. Qolip o'girilib va boshning ikkita yarmi ehtiyotlik bilan olinadi. Namunaning ichki tomoni cho'tkacha, sovunli eritma yordamida bor e'tibor bilan tozalanadi, keyin foydalanishga tayyor holga keltirilguncha issiq joyda quritiladi.

Qoliplar qoplamasi (Gipsli shakl)

Rasm 14.

Qoplama qolipning ichki yuzasidan olinadi. Ko'pincha papye-mashe ishlatiladi. Boshning ikki yarmi qurigach, ular qolipdan olinib, bir-biriga yopishtiriladi. Yog'och ilmoqli katta ilgak bo'yinga qotiriladi, shunda boshni tanaga birlashtirish mumkin bo'ladi.



Papye-mashe vazni qolipning ichki yuzasiga vazelin surtilib, yumaloq-yumaloq qilib qo'yiladi. Yumaloq-yumaloqqa qattiq bosim ko'rsatilishi qoplama bilan bog'laydi (taxminan 5 mm qalinlikda) va u qoplama qurish paytida zichlanishi uchun qolip choklarini andak yopishi zarur bo'ladi. Har qismning qoplamasi qisman quruq bo'lsa, unda bosh barmoqlar bilan yuza qoplamasi eziladi. Chunki bu harakat zichlikdan qochish va shaklni ichidan ushlanishini ta'minlaydi. Qolipdan ortiqcha qismlari qirqiladi va qolipdan alohida qoplamalar olinib yopishtiriladi.

Qatlamli papye-mashe namunaning har qismiga surtilgan sifatli shimuvchan qog'oz qatlamlaridan qilinadi. Qatlamli papye-mashe quriganida, u ehtiyotkorlik bilan pichoq yordamida olinadi. Qatlamli papye-mashe – papye-mashe vazniga nisbatan ingichkaroq. Shu sababdan

ulanuvchan chok bo'yin asosidagi ochiq makonda, arqon yo qullob (bandaj) bilan mahkamlangan bo'lishi kerak.

Daraxt qatlamlari katta va keng shakllarda (blinlar ko'rinishida) namunaning har bir qismiga yotqiziladi, presslanadi, idishdagi pishiriq kabi chok bo'yicha qirgiladi. Tayyorlashdan oldin qolipni surtma bilan surtishga ehtiyoj yo'q, u suvda iviydi.


Cho'p qo'g'irchoqlar

Odatda bosh, kaft va tovonlar qattiq yog'ochdan (jo'ka (lipa) daraxti – eng yaxshi variant), qolgan bo'laklar uchun yumshoq yog'och yaroqlidir. Yog'och qo'g'irchoq bo'yindan bilak va kaftgacha kiyinadi. Bo'laklar barcha ulagich unsurlar qirqilgandan keyin shaklga to'g'rilanadi. Ko'p hollarda asbob sifatida 25 millimetrli keskich (rezba ochadigan keskich) yo detalli ishlarga 8 millimetrli keskich to'g'ri keladi. Ish qurollaridan yana yog'och bolg'acha, ignali egov va yog'ochga to'g'ri burchak shaklini berish uchun arracha kerak bo'ladi. Tasmali pardoqlash elektr stanogi yog'och bo'yicha barcha ishlarga yaraydi. Qirqish jarayonida yog'ochni ushlab turish juda muhim. Ish vaqtida usta odatda bir qo'lida matoli yog'ochni, boshqa qo'lida keskichni ushlaydi.

Yog'och teksturasi (tuzilishi)


Tik turuvchi figuradagi qo'g'irchoq teksturasi yo'nalishi yuqoridan pastga vertikal. Keskichni burchakda namuna (qolip) burchagi teksturasiga mos tarzda ushlab kerak.

Rezba. Agarda kishi yog'och bo'yicha tajribali yo'nuvchi (kesuvchi) bo'lmasa, rezbadan oldin qo'g'irchoqning barcha bo'laklariga zarur rasmlarni chizishi ma'qul. Odatda, yog'och shakllari to'g'ri to'rtburchak yo doira ko'rinishiga ega bo'ladi. Ikkala holatda ham namunalarni tasvirlardagi profillarga muvofiq to'g'ri burchak shakliga keltirish zarur. 15, 16 va 17 rasmlarda plastilinni qolip va yog'ochdan bevosita modellastirish metodi bilan tayyorlanadigan qo'g'irchoqlarning namunalari ko'rsatilgan.




Boshni qirg'ish


Rasm 18.



muhiim. Birinchi navbatda bo'yindan burungacha (eng baland nuqta) bo'lgan yuza qismi tozalanadi.



Rasm 19.



3. Barcha burchak egiklari va yuz qismlari o'yilgan, boshni yuqoriga qaratish mumkin.


4. Metall bilan bog'lanadigan joylar, burun va profilning orqa tomonini jivirlatish lozim. Quvurlardan bo'yin tomon tozalangan.

Yuz qismini yuqoriga qaratib iskanjarda boshni yanada detallarigacha ishlash mumkin. Ko'z va og'iz detallashgan va yuz chiziqdari silliqlangan. Burun kichik qili arra, betlar, iyak va bo'yinni silliqlatish keskich yo egov yordamida qilinadi. Qo'g'irchoqning boshqa bo'laklarini qirqish ham bosh qirqish jarayonidagidek kechadi.

Ulanishlar (ulagichlar)

Qanday materialdan tayyorlanishidan qat'iy nazar qo'g'irchoq bo'g'imlarini birliktirishida inson tanasi harakatlariiga monand qo'g'irchoq harakatlariining nisbatan haqiqatnamo bo'lishini hisobga olishga intilish zarur. Bunday ulagichlar tirsak, kafi va tizzalarda sharnir (oshig-moshig) ulagichlar yo bo'yin, yelka va tovonlar atrofiga erkin aylanuvchan bog'lanishlar bo'lishi mumkin. Yog'och qo'g'irchoq uchun ulanishning uch asosiy turi bor: ipli, terili, tarmovchasi bor tirnoqli bog'ich. Bir qo'g'irchoqda uch turdagi ulagichlar bo'lishi mumkin, ularning har biri u yo bu holatda zaruratga ko'ra tanlanadi.

Terili ulagichlar



Rasm 22.


Terili ulagichlar faqat oldinga va orqaga qilinadigan sharnirli (oshiq-moshiq) harakatlarni juda yaxshi ta'minlaydi. Bunday ulagichlar qo'llanilishining yaxshi namunasi sifatida qo'g'irchoqning tizza, tirsak va kaftlari hisoblanadi. Agarda qo'g'irchoqning atrofga salmoqli aylanishi hisobga olinmasa, bunday ulagichlar yelka va belga yaroqli.

Terili material mustahkam va qayishqoq bo'lishi kerak. Kichkina qo'g'irchoqlarga zamsh (yumshoq charm), kattalariga - qo'lqopli teri yo muqovabop saxtiyon (echki terisidan qilingan material) ishlatiladi.

Tizza uchun terili ulagichlarni tayyorlash


Rasm 23. 1.

1. Ulanayotgan har bir uchning markazidagi bo'shliq (markazidan ichiga) arralanadi. Teshik bir-biriga nisbatan qat'iy tarzda joylashadi.



Rasm 23. 2.

2. Har bir uch yuzasining yarmi jilvirlantiriladi yo burchakka qarab tilinadiki, bu qo'g'irchoq harakatining erkinlik darajasini belgilaydi.



3. Har bir teshikka terining kvadrat bo'lagi uchlarning bir-biriga qat'iy muvofiq kelmagunicha joylanadi. Har bir teshikka ozgina yelim qo'shiladi, bunda yelim ulanayotgan uchlarga tushmasligi zarur.

4. Teridan ortiqchasi piska bilan qirqiladi.


5. Harakatlarni sinab ko'rish natijasida ulagichlar tarang emasligi aniqlanadi va har bir ulagichning yuzasiga teri fiksatsiyasi (holatini

aniqlab turish) uchun ikkita kichik bulavka (ninali to'g'nog'ich) o'rnatiladi.

Taxta yon qirrasidan chiqarilgan tirnoq(tilcha) va ariqchali ulagichlar

Bunday ulagichlarni qilish yetarlicha mushkuldir. Lekin, ular harakatlarni haqiqatnamo bo'lishini ta'minlaydi va akrobatik qo'g'irchoqlar uchun yaxshi qo'l keladi.

Taxta yon qirrasidan chiqarilgan tirnoq va ariqchani tayyorlash



Rasm 24.

1. Har bir uchdagi ulagich ikki bor sal egovlanadiki, bunda bir qism boshqa uchning bo'shlig'iga joylashtiriladi. Sal egovlangan qismlar burchak ostiga olinib, qo'g'irchoq harakatlarining u yo bu erkinlik darajasini ta'minlaydi.

2. Bo'shliq chetlari jilvirlanadi. Bo'shliq kengligiga mos holda egov tanlanadi.

3. Eng qisqa tomonda tilcha qo'yiladigan kichkinagina ariqcha va boshqa uchda ariqchaga mos o'lchamda o'yi arralanadi.

4. Barcha chetlar yumaloqlangan shaklgacha jilvirlantiriladi.

5. Taxta yon qirrasidan chiqarilgan tirnoq va ariqcha bir-biriga qo'yilib orasidan parmalanadi. Teshik o'lchami ulagichdagi aylanish o'qini mustahkamlaydigan ip diametriga mos bo'lishi kerak.



6. Kalta sim teshik orqali o'tkaziladi va chetlar bo'yicha qirqiladi.

Nostandart ulagichlar

Ipli, terili va taxta yon qirrasidan chiqarilgan tirnoq va ariqchali ulagichlar bo'yicha ko'rsatmalar tizza va tirsaklarni birlashtirishda qo'llanilishi mumkin. Ulagichlarning yuqoridagidek o'xshash boshqa metodlariga yanada batafsilroq to'xtalish zarur. Yuqorida bel ulagichning turli turlari ko'rsatib o'tildiki, ularning har biri ma'lum darajada harakat erkinligini ta'minlaydi.

Rasm 25.


Bu rasmda ikkita terili, ikkita ipli ulagichlar va kichkina metalli sharnir- (oshiq-moshiq)li ulagichlar ko'rsatilgan.

**Rasm 26.**

Bu ulagichlar bel uchun qo'llaniladi. Ularning har biri harakat erkinligini ta'minlaydi. Ayrim turlari bir tomondan boshqa tomonga harakatlanishni ko'zlaydi.


Rasm 27.

Ushbu rasmda bo'yin ulagichning ikki turi ko'rsatilgan. Birinchi holda ikkita dumaloq ilgak bo'yinga burab mahkamlangan va uning ostida teshik bo'ladi. Bunday o'zaro bog'lanish har tomonlama harakatlanishni ta'minlaydi. Ikkinchi holatda qo'g'irchoq harakatlanish erkinligini oz darajada ta'minlaydigan ulagich bosh ichida joylashgan.



Bilak ulagich bo'yicha birinchi holatda, simli ulagichlar ayrim yonlama harakatga imkon beradi. Boshqa holatlarda, terili va timoqli ulagichlar sharnirli (oshiq-moshiqli) hisoblanadi. Qo'g'irchoq qo'li, kafti bilan

muvozanatlashtirilib, yuqoriga qaratadigan va bosh barmoqqa bog'langan ip bilan boshqariladigan holatlar bundan mustasno.




Rasm 28.

Mazkur ichki tizza ulagich ko'proq akrobatik qo'g'irchoqlarga mos keladi. Bu ulagichlar asosan kaftlarga to'g'ri keladi. To'piq ulagichlar ajrab ketishini oldini olish uchun oyoqlar andak tik holda qir qilishi kerak. Akrobatik qo'g'irchoqlarda harakatlanayotgan tovonlar orasida bo'shliq bo'lib, ulagichning turi va shaklini belgilab beradi.

Bir tekislikdagi (yuza) harakat

Rasm 29.

Ayrim, dastaki (qo'l) dorboz, "ilon-odam" va akrobat kabi qo'g'irchoqlar bir tekislikda harakatlanishga mo'ljallangan. Rasmda terili, sharnirli ulagich (yelka va bo'yin istisno tarzda) yonlama harakatlanishga imkon bermasligi ko'rsatilgan. Ko'krak qismi o'tadigan joyga yelimlangan mustahkam simli valchada yelka erkin aylanadi.



Tor shayba har bir yelkaga biriktirilgan, sim uchlari ikki tilga bo'lingan va bukilgan. Qo'g'irchoq bo'yni asosidagi ilgak bo'yin teshigidan o'tadigan simli sharnir yonida mahkamlangan. Bunday biriktirish usuli ko'pincha hayvonlarning oyoq, qo'llarini modellashtirishda qo'llaniladi.

Boshqarish tuzilishi (moslamasi)


1. *Tayanch (tirgak)*. Qo'g'irchoqning asosiy vazni odatda yelka iplarida ushlab turiladi. Bosh iplari sodda qo'g'irchoqlardagina bu vazifani bajaradi, lekin, odatda ular boshni ushlashga qo'llaniladi. Orqa iplar ham

qo'g'irchoqning ma'lum holatlarda og'irlik qismini ushlab turadi – ular odatda qo'g'irchoq muvozanati uchun yelka iplari bilan bir joyda bo'ladi. Bu besh ip boshqaruvchi iplar hisoblanadi va qo'g'irchoq yurituvchi qo'lida bo'ladi.

2. *Vaga boshqarishi orqali ta'minlanadigan harakatlar.* Vaganing yengil qayrilishi qo'g'irchoqni ta'zim qilishga, vaganing yonlama harakatlari bosh engashishini ta'minlaydi. Sakrash, tizzani bukish va yotma holatlari ayrini ko'tarish va tushirish bilan ta'minlanadi. Akrobatik qo'g'irchoqlar uchun ko'p holatlar vaganing to'liq qayrilishi bilan amalga oshadi.

3. *Bo'linmali vaga, simli va kiygazmali richag iplarining individual harakatlari.* Odatda yechma vagalar asosiy vaga ilgaklarida osiladi. Asosan, bu qo'l vagalar bo'lib, ularning har biri qo'g'irchoqning bosh barmoqlariga tortilgan ip yordamida qo'g'irchoq yurituvchi tomonidan qo'lda erkin boshqariladi. Ko'p qo'g'irchoq yurituvchilar oyoq (pichoqli) bo'linmali vagalardan foydalanishadi, ular asosiy vaganing sharnirlari kabi mustahkam mahkamlangan va shuningdek, bosh barmoqlar bilan boshqariladi. Qo'g'irchoq qo'lini ko'taruvchi va tushiruvchi simli richaglar ba'zan asosiy vagaga biriktiriladi. Qo'g'irchoqni boshqarish unsurlari foydalanish xususiyatlariga ko'ra cho'tka, yog'och bog'ichlar yoki kartonlardan tayyorlanadi.

Vertikal boshqarishning uch turi



Rasm 30.

1. Tipik vertikal boshqarish moslamasi balandlikda, qo'g'irchoq bo'yining teng yarmida bo'ladi. Sharnirli oyoq (pichoq) ulagich qo'l barmoqlari erkin harakatlanishini hisobga oladi.


2. O'sha ulagich moslama qo'lning bosh barmog'i uchundir.

3. Qo'lli iplar uchun bo'linmali oyoq (pichoq) ulagich va richagli (pishangli) ulagichlar.

Horizontal boshqarishning uch turi

Rasm 31.


1. Yechma pichoqli (oyoq) vaga bilan standartli gorizontali ulagich.
2. Soddalashgan gorizontali ulagichlar. Bir tomondan boshqa tomonga qayrilish tizza harakatlarini ta'minlaydi.
3. Qo'g'irchoq-hayvonlar uchun sodda ulagichlar. Old oyoq iplari shunday kesishadiki, qarama-qarshi tomonga oyoq harakatlarini ta'minlaydi.



Uloqtirma birikishlar

Bunday birikishlarning ikki turi tryukli qo'g'irchoqlarda qo'llaniladi. Birinchi holatda boshqaruvchi birikish vertikal tarzda qo'g'irchoqning barcha harakatlarini yuzaga chiqaradi. To'liq burilishda qo'g'irchoq ip birikishlari xususiyatlaridan kelib chiqib harakatlanadi. Ikkinchi holda, birikish qo'g'irchoq bosh yo yelka atrofida aylanishiga xizmat qiladi. Bunda u oldinga engashadi va ikkilamchi iplardan qutuladi.

Qo'g'irchoqlarda bel ulagichlar yengil va qayishqoq, faqat bo'yin atrofi ulagichlari bir tomonlama harakatni ta'minlaydi. Asosiy ulagich yuqorida, qo'g'irchoq bo'yining uchdan ikki qismiga teng tarzda joylashgan. Oltita asosiy iplar mavjud. Ikkitasi boshga, ikkitasi tovonga va yana ikkitasi belni biriktirishga to'g'ri keladi. Oyoq iplar uchun xochsimon tirgak (hovon) bosh iplar uchun tirgakdan kengroq.



Rasm 32.


1. Akrobat boshli iplar orqali vertikal holatda turibdi, ort iplardan biri siqiq (tortilgan), qo'l iplar – erkin.


2. Mustahkamlovchi mahkamlagich oldinga engashtirilgan, qo'g'irchoq tizzaga tushadi, qo'llarini oldinga cho'zadi. Agar mahkamlagichlar gorizontol holatda bo'lsa, unda qo'g'irchoq yerda, qo'llari va oyoq ost(tovon)lari yerdan ko'tariladi.

Rasm 33.

3. Bosh ushlashini boshqaruvchi mahkamlagichning uchi o'zgarmas holatda qoladi, vertikal holda ko'tarilgan qarama-qarshi uchi tovonni yuqoriga tortadi. Tosga mahkamlangan ortki ip bel ipini zaiflashtirgan holda tortilgan. Ulangan iplar uzunligi to'g'ri tanlangandagina akrobat-qo'g'irchoqni qo'llaridagi muvozanati yengil bo'ladi.

4. Bosh mahkamlagich uchi ortga tortilgan. Tovonni ushlaydigan uch oldinga harakat qilib, yelkaga qo'g'irchoq tovonini tushiradi.






Rasm 34.

Uloqtirma mahkamlagichning ikkinchi turi qo'g'irchoqning mazkur "sochma" misoli orqali ko'rsatilgan. Mahkamlagichning vertikal holati qo'g'irchoqning qo'llari va oyoqlarini yelka va son teshigidan tortilgan cho'zma iplar orqali ushlaydi. Yurishni qo'llar va oyoqlar birgalikda harakatlantiradigan yechma mahkamlagichlar ta'minlaydi, bosh esa hammasidan alohida harakatlanadi.

Tandemli mahkamlagichlar

Rasm 35.

Tandemli mahkamlagichlar ko'pincha qo'g'irchoqlar guruhlarini o'zgartirishda foydalaniladi. Rasmda ko'rsatilgan boshqaruvchi mahkamlagich ayrim standart gorizontaal mahkamlagichlarning murakkabliklarini namoyon etadi, u bir tomondan boshqa tomonga og'adi. Asosiy mahkamlagich butun qo'g'irchoqni ushlaydi, yon pishangi(richag)lar egiladi va tizzalar ko'tariladi. Bunday mahkamlagichni guruhdagi istalgan miqdordagi qo'g'irchoqlarga qo'llash mumkin.




Ulagich (biriktirgich) iplar

Iplar turlicha bo'lishi mumkin: qo'g'irchoq vazni va o'lchoviga bog'liq tarzda makrame yoki gilamli. Ip uzunligi qo'g'irchoq bo'yi, boshqaruvchi mahkamlagichlar va sahna o'rtasidagi masofa hisobidan

aniqlanadi. Qo'g'irchoq yurituvchi qo'lining joylashish balandligi ham inobatga olinadi. Bo'yi 450 mmli qo'g'irchoqqa yelkali iplar 1200 mmdan kam bo'lmasligi kerak.

Yog'och qo'g'irchoqlar asosiy boshqaruvchi mahkamlagichning teshiklariga va qo'g'irchoqning o'ziga iplar bilan biriktiriladi. Papyemashedan qilingan qo'g'irchoqlarda simli ilmoqlar sterjenli tizim ustida ishlash qismi hisoblanadi. Latta qo'g'irchoqlar uchun iplar uzunligi material o'lchamiga muvofiq qirgiladi.

Boshqaruvchi mahkamlagich iplarini mustahkamlash talab qilingan balandlikda o'rnatiladi. Yelka iplari birinchi navbatda tortilib, u bilan boshqa iplarning uzunligi taqqoslanadi. Qo'llar andak ko'tarilgan holda mahkamlangan. Tizza iplari shu darajada tortiladiki, oyoqlarning harakatlari aniq ko'rinadi.



Rasm 36.

1. Yelka iplari. Qo'llar bir holatda muvozanatda bo'lishi uchun ular uzunligi bo'yicha bir xil bo'lishi kerak.

2. Bosh iplari. Bosh teshiklari quloqlar ortida joylashgan. Bu boshni aylantirish uchun muhim.

3. Ortki iplar. Orqa teshik bel mahkamlagich tepasida joylashgan. Bu ip yelka iplari bilan birga qo'g'irchoq turg'unligini ta'minlaydi.

4. Tizza iplari. Teshik tizza mahkamlagichlar tepasida joylashgan. Ular siqiq tortilgan bo'lishi kerak.


5. Qo'l iplari. Odatda qo'lining katta barmoqlariga biriktirilgan va qo'llar turli tomonlarga harakatlanadi.

Oddiy harakatlar

Rasm 37.

1. Ta'zim. Boshqaruvchi mahkamlagichlar oldinga egiladi, egiluvchan ip to'g'rilanadi (tenglashadi). Yelka va bosh iplari qog'irchoq soniga nisbatan bukiladi.


2. Bo'sh aylanishi. Yo'nalishlariga muvofiq tarzda bosh aylanishini bir tomondan boshqa tomonga boshqariluvchi mahkamlagichning andak og'ishi ta'minlaydi.



3. Tizzaga yiqilish. Oyoqlarni boshqaruvchi mahkamlagichdagi bosh barmoqning pastga harakati qog'irchoqning o'ng tizzasini bukadi, pishangni o'zi esa oldin va pastga harakatlantiradi. Qo'l mahkamlagichning bukilish burchagi osti qo'llarni bukadi.

Yurish

Rasm 38.



1. Kerakli qo'l mahkamlagichdagi qo'lning bosh barmog'i harakatlanishi o'ng ipni zaiflashtirib, chap tizzani ko'taradi.

2. Barcha boshqaruvchi mahkamlagichlar chap oyoq orqali oldinga harakatlanadi, oyoq mahkamlagichi esa avvalgi holatga qaytadi. O'ng oyoq chapga tutashadi va keyingi harakat boshlanishiga tayyorlaydi.

3. Bosh barmoq pastga harakati o'ng oyoqni ko'taradi.

4. Boshqaruvchi mahkamlagich oldinga, o'ng oyoq orqali harakatlanadi, bu vaqtda chapi o'ngga yaqinlashadi. Bu yerda harakat bosqichma-bosqich ko'rsatilgan, amaliyotda asosiysi u aniq va davomli bo'lishi kerak.

Jonglyor qo'g'irchoqlar

Mazkur tur qo'g'irchoqlarning nisbatan eng yengil turlaridan biri hisoblanadi. Jonglyor bir sharni ishlatishi mumkin, uni bilintirmasdan ma'lum balandlikka ko'taradi va predmet ko'rinmay qoladi, keyin kutilmaganda qaytadi. Boshqa holatda jonglyor ikki shardan, jonglyorlikning tomoshaviy illyuziyasini yuzaga keltirgan holda foydalanadi, garchi, sharlar qo'g'irchoq qo'llariga nisbatan o'z holatini o'zgartirmaydi. Shuningdek, ikki sharni ishlatish orqali qo'g'irchoqning chap tovonidan sharlar urilib qaytishini amalga oshirish mumkin.


Amaliyotda qo'g'irchoq yurituvchi oldiga oyna qo'yilganda aslida nima sodir bo'layotgani ko'rinadi – buni yuqoridan ko'rish oson emas. Jonglyor qo'g'irchoqlar andak orqaga tashlangan boshga ega bo'lishi va ko'zlari ham ko'tarilishi kerakki, go'yo ular sharlarning harakatini kuzatayotgahday tasavvur uyg'otsin. Tana va oyoq uchun mahkamlagich turi o'z ixtiyoricha tanlanadi, lekin qo'llar nisbatan qayishqoq va egiluvchan bo'lishi kerak. Yelka va tirsaklarning ipli mahkamlagichlari mazkur holatga yaxshi mos keladi, bilaklardagi terili, shamirli ulagichlar kamroq yeyilib ketadi.

Sharlarni yog'och qatlami bilan to'ldirilgan oddiy tennis sharchalaridan tayyorlash mumkin. Jonglyorning qo'llari sharlarga tekkanda shovqin chiqarishidan qochish uchun kigiz bilan qoplangan bo'lishi kerak. Asosiy boshqaruvchi mahkamlagich standart tarzda tanlanadiki, qo'g'irchoq yuradi, sakraydi va qulluq qiladi. Jonglyorlik harakatlari bir yo undan ko'proq yechma qo'l mahkamlagichlari bilan nazorat qilinadi, undan iplar orqali sharlar qo'g'irchoq qo'llari teshiklaridan o'tadi.


Rasm 39.

1. Boshqaruvchi qo'l mahkamlagich asosiy holatda, shar esa jonglyor qo'llarida turadi. Har bir mahkamlagichdan chiqqan iplar sharlardan qo'g'irchoq qo'llariga o'tkaziladi, uchinchi ip esa sharning o'ziga birlashtiriladi.

2. Yurishda tizza iplari erkin harakatlanishi uchun qo'l mahkamlagichni oldinga olib borish zarur.



3. Qo'l mahkamlagichdagi markaziy ip ilgakka kiygaziladi va sharni bir qo'ldan boshqasiga otgan holda mahkamlagich shiddat bilan o'ngga egiladi.



Rasm 40.

4. Hali qo'l mahkamlagich to'g'rilanib va oldinga surilguncha markaziy ip sharni havoga otadi. Mahkamlagich qancha uzoqroqqa surilsa (qo'zg'alsa), shunchalik shar uzoqroqqa otiladi.


5. Tortilgan ipga yo'naltirilgan sharni ushlab olish uchun qo'l mahkamlagich asosiysiga yaqin qaytadi va chapga egiladi.

6. Chap qo'l tushiriladi va shar avvalgi (boshlang'ich) holatga qaytadi. Bu, harakatlar ketma-ketligi aks tartibda amalga oshirilishi mumkin, yoki shar havoga ikkala qo'l bilan irg'atiladi.

Rasm 41.

1. Mazkur tryukda iplar bilan qo'g'irchoqning peshanasi va chap oyog'iga tortilgan uchinchi mahkamlagich qatnashadi. Agarda mahkamlagich bir qo'lda ushlanmasa, unda qo'g'irchoqni ikkinchi qo'g'irchoq yurituvchi ushlaydi (yuritadi).

2. Qo'l mahkamlagich shiddatli harakati bilan ikkala sharni havoga igr'itadi.



3. Qo'l mahkamlagich pastga tushiriladi, ikkinchi mahkamlagich ko'tariladi va iplar bilan qo'g'irchoqning peshanasi hamda chap oyog'iga tortilgan sharlar dastlabki (avvalgi, boshlang'ich) holatiga qaytadi. Chap oyoqdagi shar qo'lga yuqorida qayd qilingan harakatlarning aks tartibdagi ketma-ketligida qaytadi. Qo'g'irchoq peshonasidagi shar esa o'z vazni borligidan qaytadi.


Trapetsiyadagi akrobat

Mazkur akrobat trapetsiyaga tushirilgan holda qo'llarga osib olinadi. Yerga tegib u tomoshabinlarga ta'zim qiladi, keyin yana yuqoriga ko'tariladi. Trapetsiya (ikki uchiga arqon bog'langan tayoq) qo'zg'ala-qo'zg'ala, uning oyoqlarini ko'taradi va tushiradi. Bir qancha tebranishlardan keyin u oyoqlarni mahkamlagichga ko'taradi, qo'llarini tushiradi va oyoqlarda osilib qoladi. U avvalgidek qo'zg'alib, qo'l holatiga qaytadi va davriy tarzda qo'llari bilan o'zini ko'tarib, tushirib bel darajasiga, mahkamlagichda ko'tariladi.

Mazkur qo'g'irchoq yengil yig'iladi va faqat bir yuzada harakatlanadi. Yelkadan barmoq uchlarigacha bo'lgan qo'llar yaxlit mato bo'lagidan tayyorlangan, barmoqlar mahkamlagichga nisbatan yumaloqlangan. Yelkalar ko'krak orqali o'tkazilgan simli sharnirlarda aylanadi. Bosh, yelkalar va tananing yuqori qismi bir yaxlitlik hisoblanadi. Bel teri ulagich bilan mahkamlangan, u oldinga egiladi. Sondagi mahkamlagichlar atroflama harakatga yo'l qo'ymasligi kerak, oyoqlar esa yaxlit materialdan qilingan. Trapetsiya yuqori va quyi yog'och xaridan,

eshilmaydigan simlardan qilingan. Simlar uchi qayrilgan va aylanishdan qochish uchun mahkamlangan.

Boshqaruvchi mahkamlagich notekis, Tsimon, akrobat bo'yining yarim balandligida, qo'llarini yuqoriga ko'targan tik holatda. T-mahkamlagichning quyi uchi trapetsiyadagi yuqori xari markaziga o'rnatilgan. U ishlatilmaganida 43 rasmdagi 4-holatda bo'ladi, bir xil uzunlikdagi iplar quyi trapetsiyadagi teshik orqali akrobat kaftlari va oyoq barmoqlari orasidagi teshiklarga o'tkazilgan. Beshinchi ip T-mahkamlagichning markazi yuqorisidan, akrobat boshidan pastga o'tkazilgan. Ko'p vaqt bu ip erkin holatda bo'lib, uni qo'l iplarining bir xil tortilishidan hisobga olgan holda tanlanishi kerak (43-rasm, 5-holat).





3. Trapetsiya havoga ko'tariladi va yoniga aylanadi. O'rta holatgacha T-mahkamlagichning turlicha ko'tarilishi va tushishi akrobat oyoqlari ko'tarilishi va tushishiga, aylanish vaqtida trapetsiyaga bosim ko'rsatadi. Endi, qo'g'irchoq yurituvchi trapetsiyani bir qo'l bilan ushlaydi va aylantiradi, boshqasida T-mahkamlagichni harakatlantiradi.

Rasm 43.

4. Trapetsiya qo'zg'aluncha, akrobat oyoqlarini kaft darajasiga ko'tarib, T-mahkamlagich yuqoriga chiqadi.

5. Qachonki, T-mahkamlagich teskari tomonga bukilganida o'rta holatda bo'lib, akrobat qo'llari trapetsiyadan ajraladi va u oyoq barmoqlarida osila boshlaydi.



Rasm 44.

6. T-mahkamlagich to'liq orqaga bukilganda, akrobat qo'llari uning boshi ostidan cho'ziladi. Hali trapetsiya qo'zg'alishda davom etayotganida harakatlarning aks tartibida akrobatni avvalgi (boshlang'ich) holatga qaytarish mumkin.

7. Bu yerda 3 holatdan boshlanib, bosh ipi akrobat trapetsiyadagi o'z vazni yordamida, qo'llari vositasida muvozanatlashguncha ko'tariladi. Hali qo'g'irchoq yurituvchi bosh ipini ko'targuncha akrobat qo'li trapetsiyani tebratib, T-mahkamlagichni ushlagan holda uni ushlab turadi. Buning barini qilish juda oson emas, modomiki, oyoq iplari trapetsiya yuqorisigacha oyoqlarni bir maromda tushirishi kerak.


Qo'l bilan muvozanatlashtiriladigan akrobat

Bu akrobat sakrashlar seriyasi bilan chiqib, oyoqlarida vertikal holda turadi. U jamoatga ta'zim qilib, sahnada turgan joygacha belidan engashib, qo'llarini muvozanatda ushlab oyoqlarini vertikal holatgacha yuqoriga sekin ko'taradi. Bu holatda u tirsaklarini bukib va rostlab, bir qancha vaqt ko'tariladi va tushiriladi. Nihoyat u sahnada qo'llar bilan yurib, bir necha bor aylanadi.

Qo'g'irchoq bir yuzada (bo'yin istisno tarzida) harakatlanishga mo'ljallangan. Qo'llar va oyoqlar muallaq bo'lishi, qo'g'irchoq masxaraboz libosini kiyishi uchun yog'ochli sharnir uchlarida terili sharnir mahkamlagichlar bo'lishi kerak. Yelkalar ko'krakdan o'tadigan simli sharnir mahkamlagichlar tufayli aylanadi.

Rasm 45.

Asosiy boshqaruvchi vaga tashlama mahkamlagich hisoblanadi. Yechma mahkamlagich iplar asosiy mahkamlagichning ortida bo'ladi. Terili pishangi iplar akrobat qo'llari ortida, markaz oldidadir. Bosh iplari belgilangan mahkamlagichlardan keladi va qo'g'irchoqning butun vaznini ushlaydi.



Ta'zimda asosiy mahkamlagich oldinga, ko'rsatkich barmoq pishangidagi qo'l iplarini bosh iplari orasidan ko'taradi, iplar teng bo'lmagan holda joylashgan, ammo, oyoqlarning vertikal harakatlarini murakkablashtirishdan qochishga imkon berar darajada yetarlicha sodda.

Dorboz

Dorboz jamoat ko'ra oladigan joyda, ikki nuqta orasida tarang tortilgan simga chiqadi. To'liqinsimon harakatlari qila oladigan qo'llari bilan dorboz bir oyog'ida sim o'rta-siga kelib oladi, oyog'lar barmog'larida bir qancha sakrashlar qiladi, oyog'ini bukib va bir oyog'ini ortga tashlab, o'zini arabeska³ holatiga keltiradi. Avvalgi holatga qaytib dorboz sim davomiga sakraydi, qo'llar va oyog'larini tushirib, oyog' barmog'larida piruet⁴da aylanadi. Yana tezroq aylanib, u qo'llari va oyog'larini turli tomonga yoyib yuboradi. Keyin simlar kesishadi, raqos piruetni bajaradi, arabesk holatiga keladi, to yana sahna markaziga qaytmaguncha shu holatni saqlab qoladi. So'ngra u bir oyog'da o'tirib, sim uzunasiga to'g'rilanadi, uzatilgan tovoniga qo'llari va boshlarini qo'yib, bel oldga buktiladi.


Qo'g'irchoq sonidan uzatilgan oyog' barmog'igacha yaxlit materialdan tayyorlanadi. Simlarda mustahkamlangan oyog'lar mahkamlagichlari terili hisoblanadi. Boshqa oyog' belga buralgan va ikki teshiklar orasidan o'tkazilgan simli ilgakda erkin harakatlanadi. Simli ilgak oyog' barmog'larida belgilanib, qo'g'irchoqlar aylanishiga imkon beradi (48-rasm).

Asosiy mahkamlagich standart holatda bo'ladi. Ammo yechma qo'l mahkamlagichi yonlarda tirgaklarga ega. Bunday mahkamlagich mayin harakatlilar bajarishga imkon beradi. Yolg'iz oyog' mahkamlagich tenglashitirilmagan, uni o'zi erkin osma aylanma sterjen bo'lib, uzunligi uni aylanitiradigan oyog'ga deyarli tengdir.

³ Arabesk – frants. arabesque, aynan "arabcha", klassik raqsning asosiy holatlaridan biri (ko'tarilgan va orqaga uzatilgan oyog'lar bilan); oyog'lar, qo'llar, bosh, tanamning turli holatlarida ko'rinishlari o'zgarishi nazarida tutilmoqda.
⁴ Piruet – frants. pirouette, baletda bir oyog'da to'liq aylanish (yo'ki bir qancha aylanish).

6. Tovon mahkamlagichlari va ularni iplar bilan birga to'plashni nevrospast bir qo'li bilan ushlaydi, boshqa qo'li esa akrobat kaftlarida yuritishni ta'minlaydi.

5. Asosiy mahkamlagich harakati qo'llarda akrobatni o'ziga, yuqoriga va pastga itaradi. Oyoq # yo tushirishni yoki navbati bilan ularni qimirlatishga majburlaydi.




Rasm 47.

4. Oyoq mahkamlagich yana harakatlansa, iplar asosiy mahkamlagich orgali o'tadi. Asosiy mahkamlagich tenglashib, bosh ko'tariladi va orgasi bukik holda bo'ladi.


3. Akrobat qo'llari yerga tegadi va oyoq mahkamlagichlar oyoqlar bilan birga ko'tariladi. Akrobat kaftga o'tiradi.

2. Oyoq mahkamlagich ajralganda asosiy egladi va qo'g'irchoq bo'yining yarmiga bukiyadi. Qo'l pishangi oldinga, bosh iplari orasida harakatlanaadi.

1. Asosiy holatda asosiy vazni bosh iplar ushlaydi. Qo'l iplar zairlashgan va pishangi tinch holatda bo'ladi.



Rasm 46.




Rasm 48.


1. Sim ilgak qo'g'irchoq oyog'iga tushiriladi va qotiriladi. Qo'l mahkamlagich shunday uzilib qoladi va bukiladiki, qo'g'irchoqning qo'llari ko'tarilgan bo'ladi. Qachonki, qo'l mahkamlagich to'liqlanishni boshlasa, qo'g'irchoq qo'llari to'liqinsimon harakatlarni bajaradi.

2. Piruetda qo'l mahkamlagich yechiladi va oyoq mahkamlagich osilib qoladi. Asosiy mahkamlagich ilgakka osiladigan tarzda aylanadi.

Rasm 49.

3. Arabeska holatida asosiy mahkamlagich raqqosni ko'krigidan oldinga engashtiradi va oyoq mahkamlagich oyoqni yuqoriga ko'taradi. Qo'l mahkamlagich qo'llarni yozish uchun oldinga harakatlanadi. Bu holatda qo'g'irchoq yurituvchi ehtiyotkorlik bilan qo'g'irchoqni oyoq barmoqlarida aylantirishi mumkin. Bunda, arabeska holatida qo'g'irchoq yondan yaxshi ko'rinishini yodda tutish kerak.





Rasm 50.

4. Asosiy mahkamlagich pastga shunday tushadiki, raqqosning bir oyog'i simda yotadi, bo'shi pastga bukiladi. Bu holatda qo'g'irchoq joyida qat'iy turgan bo'lishi kerak. Qo'l mahkamlagich raqqos qo'llarini oyoqlariga qarab harakatlantiradi.

5. Asosiy mahkamlagich qo'g'irchoqning asosiy vazni simga kelishi uchun oldinga va pastga tushiriladi.


Yo'rtoqi ot

Qo'g'irchoq teatrlarida ot – hayvon qo'g'irchoqlar orasida eng mashhuri hisoblanadi. Modomiki, boshqa hayvonlar bilan tryuklar bajarish cheklangan ekan, ot esa, ularni oliymaqom darajada ko'rsata olishi bilan ahamiyatlidir.

Rasm 51.

Bu yerda tasvirlangan ot yo'rtib chopishi, sakrash, ortki oyoqlarida yurishi, qorni bilan yerga tegishi, boshi va dumini ko'tarishi mumkin.


Ot tayyorlash vaqtida mahkamlagichlarni hisobga olgan holda umumiy va yon qismlariga alohida e'tibor qaratish zarur.



Vaznni kamaytirish, sayqallashtirish va qirqishni osonlashtirish uchun tana balzadan tayyorlanadi. Bu material teshik qilinishiga imkon bermaydi, shuning uchun otning asosiy vaznini ushlaydigan iplar tana, qorin uzunasi, past va yuqori simlardan qilingan ilgaklarga mahkamlanadi. Vazn yo'qligida oyoqlarni ingichka qirqish mumkin. Oyoqlar tanaga simli shamirlar ko'magida birlashtiriladi. Qolgan birlashtirishlar yoniga harakatlanmaydigan birlashtirishlardir. Tizza harakatlari bir yo'nalishda chegaralanishi kerak.

Balza juda yengil va mustahkam yog'ochli daraxt bo'lib, Janubiy va Markaziy Amerikada o'sadi.

Mazkur otlarda ikkita har tomoniga chiqarilgan oyoq mahkamlovchilarga ega boshqaruvchi mahkamlagichlarning standart to'plami uchraydi. Yelka ensizligidan faqat bir ip har old oyoqdagi tizza mahkamlagichdan o'tkaziladi va tuyoqning ort qismiga yetadi. Ort oyoqlar mahkamlagichida bitta to'g'ri va bitta kesishuvchan ip bo'ladi. To'g'ri ip tizzaning ort qismiga muvofiq, kesishuvchan esa qarama-qarshi joylashgan oyoq bilan kesishib, tuyoq ortiga muvofiq keladi. Dum asosiy boshqaruvchi mahkamlagichga harakatchan yog'och tugma bilan mahkamlanadi. Bosh esa quloqlardan chiquvchi va simlar yordamida birmuncha balandlikda birlashuvchi ikki iplar ko'magida ko'tarilgan holatda bo'ladi. Unchalik katta bo'lmagan, qayishqoq prujinalar har bir tuyoq oldiga o'rnatiladi.





lagich pastga va oldinga egilganida, ot tanasi o'sha burchak osti bo'yicha bukiladi. Har bir alohida harakat dumni, old oyoqni ko'tarishga javob beradi.

Rasm 53.

3. Mazkur harakat bir tomondan boshqa tomonga asosiy mahkamlagichning aylanishini ta'minlaydi. Iplar harakati mutanosib tarzda old oyoqni ko'taradi va ort oyoqni orqaga tashlatadi. Ort oyoqdagi kesishuvchan ip uni oldinga tortadi.

4. Endi asosiy mahkamlagich otni keyingi harakatga keltirib, aks yo'nalishda aylanadi. Ot oyoqlarining mayin harakatlarini musiqa bilan bajarish mumkin.



Rasm 54.

5. Old oyoqlardagi iplar birga yig'ilganda, mahkamlagichlar esa yuqoriga ko'tarilganda, ot "levada"⁵ holatini amalga oshiradi. Old oyoqlarni bukib sakrashlar seriyasi "kurbet" deyiladi. Shu holatda ot to'siqlarni yengib o'tishi mumkin.

6. Aks harakat uchun ort oyoq iplari birga yig'ilib, shiddat bilan yuqoriga tashlanadi.

Tomosha yaratilishi

Teatr sahnasi texnikasida qatnashuvchilar, jumladan qo'g'irchoq yurituvchilarni yashirish hisobga olinadi. Ammo, Bonraku yapon teatrida qo'g'irchoq yurituvchilar tomoshabinlardan qo'g'irchoqlarning birlashtiruvchi unsurlarini yashirishmaydi. Bu tomosha dramatikligini hech qanday darajada tushirmaydi. Modomiki ko'plab teatrlarning bosh

⁵ Levada – yaylovning ot boqish, ot sovitish uchun ajratilgan qismi

maqsadi – murakkab tryuklar qanday bajarilishini aniqlash ekan, demak, yashirish unsurining detallari o‘z o‘rniga ega.


Qo‘g‘irchoq teatrini parda, o‘rindiqlar, turli materiallar bilan to‘ldirish mumkin, ularni ishlatish esa duradgorlik mehnatini talab qiladi. Marionetka teatri dizayni ko‘pincha qanday qo‘g‘irchoqlar ishlatilishiga bog‘liq. Bu yerda ikki xili bor: yuqoridan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar va pastdan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar.

Pastdan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar uchun teatr

Rasm 55.


#

Bu teatlarda parda shunday katta bo‘lishi kerakki, istalgan qo‘g‘irchoq yurituvchilar soni unga sig‘a olsin. Balandligi qulay qilib tanlanadiki, pastki chegara 1650 mm ni tashkil qilsin. Yerdan operator ko‘zi darajasida. Sahnaning o‘z balandligi esa qo‘g‘irchoqlar o‘lchami bilan bog‘liq. Qo‘l qo‘g‘irchoqlar qoida tariqasida, unchalik katta bo‘lmagan o‘lchamli bo‘ladi va ularga 550 mm yetarli. Soya qo‘g‘irchoqlarini ishlatishda esa soya ekrani sahnaga mos tarzda yorug‘ joyda ko‘rimli, ochiq bo‘lishi kerak.



Tepadan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar uchun teatr

Bu xili nisbatan murakkab.



Rasm 56.

1. Ekran yo avansahna qo'g'irchoq yurituvchilarni yashirish uchun aytarlicha baland bo'lishi kerak. Oddiy holda bu poldan 450 mm. gacha bo'lishi zarur.

2. Sahna poli sahnani ochiq makon tarzida namoyon etadigan darajada bo'lishi kerak. U qancha kerak bo'lsa, shuncha keng bo'lishi mumkin. Ammo, chuqurligi kamdan-kam hollarda 900 mm. dan o'tadi, modomiki, qo'g'irchoq yurituvchi qo'li undan uzuniga yetmaydi.

3. Ko'prik sahna poli ortida joylashgan bo'lib, qo'g'irchoq yurituvchiga turib ishlashi uchun zarur balandlikni beradi. Uning darajasi odatda 45 mm. ni tashkil etadi.

4. Tayanch parda (polog) sahna tomondan ko'prikka o'rnatilgan. U qo'g'irchoq yurituvchilarning sahnaga yiqilishini oldini oladi va tayanch sifatida xizmat qiladi.

5. Ko'prik ortiga tayoq o'rnatilib, unga ishlatilmaydigan qo'g'irchoqlar osiladi.

6. Temir parda uzun taxtachada bo'lib, u sahna ustida joylashgan.


7. Tayoqda⁶ chiroq yoritkichlar qatori, tayoqning o'zi esa parda ustida joylashgan.

Sahna dekoratsiyasi


⁶ Ingichka, uzun, shox va novdalardan tozalangan daraxt tanasidan tayyorlangan tayoq nazarda tutilmoqda.

Rasm 57.

Qo'g'irchoq teatrda dekoratsiyani joylashtirish maksimal sodda bo'lishi kerak. Bu jonli teatr avansahnasida foydalaniladi.



Qanot o'rnatilishi ko'proq qo'g'irchoqlari pastdan boshqariladigan teatrlarga to'g'ri keladi. Qanotlar yonlarda yoki chapda joylashadi va yog'och tayoqlarda osilib turadi. Qo'g'irchoqlar qanotlar ostiga qo'yiladi va ular xuddi boshqa yerdan paydo bo'lgandek chiqishadi.



Iplar bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar ishlatiladigan teatrlarda fonli ekran bilan to'sish xavfsizdir. U avansahnadon ichkariga kiradi. Ekranlar yog'och tayoqlar bilan aralashib ketadi. Qutilar o'rnatilishi teatrdagi bo'sh makonlarning hammasini ishlatish imkonini beradi. Nisbatan bu pastdan boshqariladigan qo'g'irchoqlarga to'g'ri keladi. Marionetkalar uchun ham foydalanilishi mumkin, faqat agarda kirishlar qo'g'irchoqlar emin-erkin harakatlanishi uchun yuqorida va o'ngda joylashgan bo'lsa.

Yoritish

Yoritish uslublarini maxsus yo'riqnomalardan, kataloglardan topish yo alohida hollarda elektrikka yordam uchun murojaat qilish orqali bilish mumkin. Asosiysi, tomoshaning bu yo u xili uchun yoritish xususiyatini aniqlab olish zarur.

1. Yoritkichli osma tayoq. Barcha turdagi teatrlar uchun bunday yoritish yaraydi. Yoritkichli tayoq avansahnada joylashgan. Ba'zan rangli jelatin slaydlaridan foydalaniladi.

2. Yoritish asboblari individual joylashtirish. Bu, yoritish talabiga muvofiq tarzda plafonli asboblari yo nuqtali yorug'lik manbalari bo'lishi mumkin. Sahna yonlaridagi lampalar soyalarni olib tashlashda qo'llaniladi.

3. Yoritishni taqsimlovchi shchitlar va regulyatorlar ko'chma spektakllar uchun, yoritishning har bir unsurini nazorat qilish jihatidan juda foydali hisoblanadi.

Ishlab chiqarish

Daraxt qatlami. Odatda u oddiy ko'rinishda sotiladi. Lekin, uni yelim va qirindi qorishmasidan tayyorlash mumkin. U qolipning chegaralangan unsurlari uchun yo to'ldirish uchun yo yog'ochdan qilingan va qo'g'irchoq detallarini ta'mirlash uchun qo'llaniladi.

Yog'och-plastik. Kompozit material sifatida kichik o'lchamdagi yog'och fraksiyasi (yog'och uni) va polimer plastifikator massasidan iborat bo'ladi.

Mod-rok. Bu bevosita modellastirish uchun yangi material – alebstrli marli (shasha doka) yotqizmasidir. Tayyorlanayotgan shaklga suvda namlagandan keyin yotqiziladi. Bevosita modellastirishning bu shakli simli asosdagi qo'g'irchoq tayyorlanishida foydalaniladi. Tugallangan qolipga sho'ralashi va sinishidan qochish uchun ingichka lok qatlami ehtiyotkorlik bilan yotqiziladi. Keyin moy yo akril bo'yog'ida chizish mumkin.

Sahnalashtirish tamoyillari

Syujet tanlash. Qo'g'irchoq teatri uchun uzundan uzoq voqealarni bayon qilishga hojat yo'q, shu sababdan tomoshabinning asosiy e'tibori syujet davomiyligi emas, balki qo'yilma dinamikasi mixlaydi.

Kontrast (O'zgaruvchanlik). Kontrastning har qanday ko'rinishi monotonlikdan qochishga yordam beradi. Chiqishlar, personajlar o'rtasida voqealar rivojlanishi shiddatli o'zgarishi sahnalashtiruvchilar mahoratidan darak beradi.

Tryuk. Turli qo'g'irchoqlar bir vaqtini o'zida turlicha tryuklarni bajarishi, spektakl "tryukli" gini oshirishi mumkin.

Avj. Akrobatik qo'g'irchoqlarning ko'pi faqat chegaralangan tryuklarni bajara oladi. Shu sababdan tryuklarni o'suvchan murakkablikka qarab taqsimlash ma'quldir. Tomosha finalini musiqiy jo'rlikda yakunlash mumkin: do'mbira gumbur-gumburi yoki simbalga urish.

Davomiyligi. Sahna, hatto mazkur chiqish murakkab qurilma bilan tayyorlangan bo'lsa ham bo'sh qolishi kerak emas. Tanaffusni nisbatan yengil tryuklar bilan to'ldirish mumkin.

XULOSA

Marionetka teatri - bu san'atning juda murakkab, qiziqarli, noyob va an'anaviy turidir.

Qo'g'irchoq san'atining bu turi faqat bolalarga emas, kattalarga ham yaxshi tanish. Bu teatr Chexoslovakiya, Ruminiya, Italiya, Fransiya, Angliya, Ispaniya singari Yevropa mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Ma'lumki, XIX asr boshi Yevropada qo'g'irchoq teatriga bolalar emas, kattalar borishi ustuvor bo'lgan davr edi.

Chunki, marionetka teatrida katta yoshdagi zamonaviy tomoshabin uchun mo'ljallangan falsafiy, ijtimoiy, fosh qiluvchi, qahramonlik-romantik, siyosiy-publitsistik spektakllar yaratilishi mumkin. Bu fikrni "Chodir xayol" o'zbek teatrining "Sarkardalar" ijtimoiy-satirik komediyasi, nemis qo'g'irchoq teatrining "Shifokor Iogannes Faust", "Speybl va Gurvinek" teatri dasturi va nihoyat Moskvadagi markaziy qo'g'irchoq teatrining "Noodatiy konserti" tasdiqlashi mumkin.

Qo'g'irchoq teatri O'zbekiston sahna san'atining teng huquqli a'zosi sifatida faqatgina bolalarni emas, balki kattalarni ham sevimli san'atiga aylanishi kerak. Shubhasiz, ushbu maqsadda "Chodir xayol" marionetka teatri qaytadan tiklanishi zarur. Zero, katta yoshdagi tomoshabinlar uchun kerakli yirik va murakkab asarlar yaratilishida u cheksiz imkoniyatlarga ega.

Bugungi, axborotlarga to'la bir sharoitda vaziyat albatta o'zgargan. Lekin, Respublika qo'g'irchoq teatrlari janr va mavzu jihatidan yanada boyishi kerak. Shu ma'noda "Sarkardalar" va boshqa marionetka spektakllarida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Fatxulla Xo'jayevni marionetka qo'g'irchoqlarni yaratish va ko'rsatish san'ati mahoratidan foydalanilgan bo'lardi va unda Dinara Yuldasheva, Fatxulla Xo'jayev, Farhod Mirzayev singari rejissyorlarni zamonaviy izlanishlarining mahsullari yuzaga kelardi.

Agarda o'zbek qo'g'irchoq teatrlari hali hanuz UNIMA (Jahon qo'g'irchoqchilarining xalqaro markazi)ga a'zo emasligi inobatga olinsa, marionetka qo'g'irchoqlari ishlatiladigan spektakllar ahamiyati yana bir karra ortadi. Shuningdek, buning yana bir sababi hozirgacha O'zbekistonda marionetka teatri uslubiy-nazariy jihatdan o'rganilmaganligidir. Oxirgi vaqtda paydo bo'lgan tadqiqotlar yuzaki xarakterda bo'lib, masalaning asl mohiyatini ochib bermayapti.

Jahon qo'g'irchoq san'ati darajasida rivojlanish uchun qo'g'irchoqchi mutaxassislar tez-tez xalqaro festivallarga chiqib turishlari kerak, shunda

rejissyorlar, aktyorlar katta tajriba to'plashlari va amaliyotda qo'llashlari mumkin.

Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondagi 10 ta qo'g'irchoq teatrlari (Toshkent, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston, Andijon va Farg'ona)ning bari qo'l, trostli, planshetli qo'g'irchoq yuritishdan foydalanishadi. Ammo, bironta teatrdan hozirda marionetka qo'g'irchoq turidan foydalanib spektakllar qo'yilmaydi. Sababi malakali mutaxassislar yo'q. Chunki, marionetka teatrida qo'g'irchoq boshqarish tamomila boshqa xususiyatga ega, unda umuman, boshqa ssenografiya, boshqa rejissura va qo'g'irchoq yuritishning boshqa uslubi qo'llaniladi.

Shu ma'noda, marionetka teatri bilan bog'liq muammolar davlat darajasida hal qilinishi kerak. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasida marionetkani o'rganish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar kiritilishi kerak. Qo'g'irchoq yuritishning marionetka uslubini o'rganish bo'yicha yangi yo'nalishni tashkil qilish, u yerda mashg'ulotlarni professional ustalar olib borishiga erishish zarur. Faqat shundagina O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlarining rejissyorlik yechimlari konsepsiyasida sahnaviy ifodaviylikning "marionetka" uslubini qo'llash masalasi hal qilinishi mumkin.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma shu yo'lda qilingan dastlabki qadamlardan, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida, intilish va sa'y-harakatlarimizni qo'llab-quvvatlab, qulay imkoniyat tug'dirgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Baxtiyor Sayfullayevga, shu bilan birga mazkur izlanishni yuzaga kelishda o'zining ilmiy maslahatlari bilan yordam bergan va muallifning magistrlik tadqiqoti rahbari – professor Hamidjon Ikromovga, shu mavzu ustida ishlashga undabgina qolmay, P.Frayzerning kitobini taqdim qilish orqali yaqindan amaliy yordam bergan ustoz va marionetkachi Fatxulla Xo'jaevga, masalani yanada chuqurroq o'rganishda o'z vaqtini ayamagan mutaxassis Sergey Seduxinga, o'zbek tilida adabiyotlar yetishmasligi vajidan uni tarjima qilishga rozi bo'lgan san'atshunos-jurnalist Kozimxon Sagdullayevga, fan nomzodlari, dotsentlar Ma'murjon Umarov va Go'zal Xoliqulovaga ham o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Qo'llanma dastlabki ishlardan biri bo'lgani uchun bahsli o'rinlar uchrashi mumkin. Uni o'qish davomida yuzaga keladigan fikr va mulohazalaringizni ushbu elektron manzilga (marionetka@inbox.uz) yuborishingiz mumkin. Kelgusi ishlarda ushbu fikrlaringiz inobatga olinishi ko'zlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Istiqlol va milliy teatr. – T., 2002.
3. Кадыров М. Узбекский традиционный театр кукол. – Т., 1979.
4. Перепелицына Л.А. Узбекский народный кукольный театр. – Т., 1959.
5. Смирнова Н.И. Искусство играющих кукол. – М., 1983.
6. Деммени Е. Призвание – кукольник. – Л., 1986.
7. Соломонник И.Н. Традиционный театр кукол Востока. – М., 1983.
8. Библиотека «Театра Чудес» Йорик. История марионетки. – М., 1990.
9. Смирнова Н.И. Десять очерков о театре «Цэндрикэ». – М., 1979.
10. Симонович – Ефимова Н. Записки Петрушечника и статьи о театре кукол. – Л., 1980.
11. Гаврилов М.Ф. Кукольный Театр в Узбекистане. – Т., 1927; М., 1992.
12. Fraser Peter. Puppet Circus. – Boston, 1971.
13. Образцов С.В. Моя профессия. – М., 1981.
14. Что и как в театре кукол. Сборник статей. – М., 1969.
15. Сперанский Е.В. Актер театра кукол. – М., 1965.
16. Смирнова Н.И. Театр Сергея Образцова. – М., 1971.
17. Пожоровский Б. Рассказы о том как становятся кукольниками. – М., 1973.
18. Образцов С.В. По ступенькам памяти. – М., 1987.
19. Андрианова Т.П. Тренинг актера в театре кукол. – Л., 1983.
20. Фрид Н. С куклами к экватору. Понемногу обо всем, а также о Цейлоне, Яве, Комбодже и Индии. – М., 1962.
21. Немченко Н.В. Эстрада в театре кукол. – М., 1941.
22. В профессиональной школе кукольника. Сборник научных трудов. – М., 1979.

MUNDARIJA

Kirish	3
“Chodir xayol” va “Chodir jamol” teatri	6
Yevropa marionetkasi	12
Marionetka teatrining konstruktiv xususiyatlari	18
O‘zbek qo‘g‘irchoqbozlarining estrada nomerlari	21
Marionetka konstruksiyasi, tuzilmasi va uni boshqarish.	
Qo‘g‘irchoqlarning tuzilishi	23
Marionetka konstruksiyasi, tuzilmasi va uni boshqarish. Qo‘g‘irchoqlarning tuzilishi	25
Xulosa	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	66

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

IRODA TURDIYEVA

QO'G'IRCHOQ BOSHQARISH ASOSLARI

(MARIONETKA TEATRI)

O'quv-uslubiy qo'llanma

Bosishga ruhsat etildi 16.12..2015 Ofset qog'ozi.
Qog'oz bichimi 84x108 1/16 Times New Roman garnituras.
Shartli bosma tabog'i 4.25. Nashr. hisob tabori 4,0. Adadi 30 buyurtma № 12-06

"Lesson Press" nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100071, Toshkent sh. Komolon ko'chasi, 13 uy

"ZAMON POLIGRAF"OK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shaxri Yunusobod tumani
Bobodehqon mahallasi 45 uy